



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda Ha nocty

2025-yil
23-yanvar
payshanba
№ 4 (4698)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqqan boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

«GENDER TENGLIK FAOLI» MILLIY TANLOVI

MEHNAT QADR TOPGAN KUN

Oliy Majlisning 2022-yil 27-apreldagi qaroriga binoan o'tkazilgan «Gender tenglik faoli» milliy tanlovining Toshkent shahrida bo'lib o'tgan respublika bosqichida Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimida 2024-yil davomida amalga oshirilgan ishlar yuqori baholanib, «Gender tenglikni ta'minlashda eng faol hududiy davlat organi» nominatsiyasi bo'yicha faxrli 1-o'ringa munosib deb topildi.

Darhaqiqat, bu borada vazirlik tizimida olib borilgan ishlar e'tiborga sazovordir. Chunonchi, ayni kunda vazirlik va uning quyi tizimlarida xizmat faoliyatini olib borayotgan xodimlar umumiy sonining 3,1 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Ulardan 3 nafardan sport ustasi va sport ustaligiga nomzod, 6 nafari esa turli darajadagi rahbarlik lavozimlarida xizmat qilishmoqda.



Shuni alohida ta'kidlash joizki, Qoraqalpog'iston Respublikasi IIVning ichki ishlar organlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashi o'z ishlarini davom ettirib kelmoqda. Bundan tashqari, vazirlik va Kasaba uyushma qo'mitasi o'rtasida tuzilgan jamoat shartnomasida xodimlarni ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilish, ularni qo'llab-quvvatlash va mehnat faoliyatini tartibga solish bilan bir qatorda, ayollar mehnatini tartibga solish, ayollar va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul shaxslarga beriladigan qo'shimcha imtiyoz va kafolatlar bo'yicha alohida bo'lim kiritilgan. Bu, o'z navbatida, ichki ishlar organlarida gender tenglikka amal qilish, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Fursatdan foydalanib, Qoraqalpog'iston Respublikasi IIVda xizmat faoliyatini olib borayotgan va chekka hududlarda ham mardonavor ishlayotgan barcha ichki ishlar organlari xodimlarini katta e'tirof bilan muborakbod etamiz!

KELAJAKKA ISHONCH ILA



Ertangi kunimizning nechog'lik nurli bo'lishi ko'p jihatdan yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasiga bog'liq. Shu bois Sirdaryo viloyati ichki ishlar idoralari xodimlari ta'lim muassasalarida bo'lib, yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yanada yuksaltirishga o'z hissalarini qo'shmoqda.

Suratda: Sayxunobod tumani IIB xodimlari leytenant Oybek Risqulov va kichik serjant Shuhrat Jumaboyevlar tumanning 3-umumta'lim maktabi yoshlari bilan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish yuzasidan o'tkazayotgan targ'ibot tadbirida.

ҚАРОР ВА ИЖРО

МАҚСАД – МАҲАЛЛАЛАРДА ХАВФСИЗ МУҲИТНИ ЯРАТИШ

Давлатимиз раҳбарининг «2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарорининг ижросини таъминлаш мақсадида Ички ишлар вазири, генерал-лейтенант Пўлат Бобожонов бошчилигидаги ишчи гуруҳ Қашқадарё вилоятида ўз фаолиятини бошлади.



Дастлаб вилоят Ички ишлар бошқармасида ҳамкор давлат органлари ва ташкилотлар масъуллари иштирокида йиғилиш бўлиб ўтди. Йиғилишда Президент қарорининг мазмун-моҳиятини ижро органла-

нинг асл омилларини ўз вақтида аниқлаш ва комплекс чора-тадбирлар билан манзилли бартараф этиш орқали жиноятчиликнинг барвақт олдини олиш, ҳуқуқбузарликларнинг содир этилишига

Ўтган йилда жиноят содир этилган ҳар бир маҳаллада криминоген вазиятни барқарорлаштириш ҳамда жиноятларни барвақт профилактика қилишнинг маҳаллалар кесимида чоралик манзилли чора-тадбирларини белгиланган ҳолда, маҳалла-туман-вилоят даражасида унинг ижроси учун бевосита масъул раҳбарларни бириктириш ва аниқ соҳавий жавобгарликни юклаш, илмий-амалий ёндашувлар асосида жойларда мақсадли ўрганишларни ўтказиш орқали ҳуқуқбузарликларга сабаб бўлаётган асл омилларни аниқлаш ва барҳам бериш бўйича ташкилий-ҳуқуқий чораларни кўриш, маҳаллаларда ёшлар, аёллар ва ишсизлар томонидан, шунингдек, оила-турмуш муносабатлари доирасида содир этиладиган жиноятларнинг олдини олишда маҳалла еттилиги ҳар бир вакилининг аниқ масъулияти белгиланди.



рининг барча бўғинларига етказиш, интерфаол методлардан фойдаланган ҳолда унинг самарадорлигини ошириш масаласига эътибор қаратилди.

Қарор талабларидан келиб чиқиб, вилоятнинг ҳар бир туман ва маҳалласига ички ишлар органлари, прокуратура, Миллий гвардия, ҳокимият ҳамда алоқадор ташкилотларнинг масъуллари бириктирилди.

Шунингдек, «Ўзбекистон — 2030» стратегияси, Ўзбекистон Республикасининг «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонуни ҳамда Жамоат хавфсизлиги концепциясида белгиланган устувор мақсад ва вазифаларнинг амалий ижросини таъминлаш бўйича масъулларга топшириқлар берилди.

Маҳаллаларда хавфсиз муҳитни яратишнинг ташкилий-профилактик асосларини замон талабларига мослаштириш, қонунбузилишлар-



сабаб бўлаётган ижтимоий-маиший муаммоларни ижтимоий профилактика тизими орқали ҳал қилиш ҳамда аҳолида шахсий хавфсизлик ҳиссини шакллантиришга қаратилган самарали чора-тадбирларнинг мазмун-моҳияти ҳақида масъуллар томонидан иштирокчиларга тушунтиришлар берилди.

Келгусида ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олишнинг самарали тизимини шакллантириш мақсадида «E-ijtimoiy profilaktika», «E-ma'muriy ish» ахборот тизимларини амалиётга кенг жалб этиш бўйича топшириқлар берилди.

Ўз мухбиримиз.

ҚАРОРГА КЎРА:

■ Масъул идоралар ва муассасалар учун 2025 йилда «Ҳар бир маҳаллада ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш» устувор вазифа этиб белгиланди.

■ Ҳуқуқбузарликларнинг барвақт профилактикаси, Дастур ва «йўл хариталари»нинг ижросини назорат қилиб бориш учун Бош прокуратура ҳузурида Республика идоралараро мувофиқлаштириш ишчи гуруҳи тузилади.

■ Эндиликда, жиноят содир этилган маҳаллаларда илмий ташкилот ва таълим муассасалари томонидан илмий ёндашувлар асосида ўрганишлар ўтказилади.

■ Барча туман (шаҳар) сектор раҳбарларига, Миллий гвардия қўриқлаш хизмати бошлиқларига ва ички ишлар органлари бошлиқлари ўринбосарларига 2025 йилда криминоген вазият оғир маҳаллалар номма-ном бириктирилади.

■ Масъуллар фаолияти ҳар ой якунида – Ички ишлар вазири ҳузурида, ҳар чорак якунида – Бош прокурор ҳузурида, ҳар ярим йилда – Бош вазир ҳузурида танқидий муҳокама қилинади, ҳар бир маҳалла кесимида Президентга ахборот бериб борилади.

■ Вилоятлар марказлари ва криминоген вазият оғир туман (шаҳар)лар маҳаллаларида профилактика кичик инспектори фаолияти йўлга қўйилади. Кичик инспектор меҳнат мигрантлари, мактаб битирувчилари ва талабалар билан ишлайди.

■ Ички ишлар органларида миграцион профилактика бўлинмалари, туманлараро маъмурий конвой гуруҳлари ташкил қилинади.

■ Синов тариқасида криминоген вазият оғир ҳудудлардаги профилактика бўлинмаларида маъмурий амалиёт гуруҳлари фаолияти йўлга қўйилади ва улар жиноят иши кўзғатишни рад этишга оид ҳужжатларни ўрганиб, таркибида маъмурий ҳуқуқбузарлик бўлган ҳолатлар юзасидан ҳужжатларни расмийлаштиради.

■ Маҳалла ҳуқуқ-тартибот масканлари фаолияти йўлга қўйилади. Унга профилактика (катта, кичик) инспекторлари, хотин-қизлар масалалари бўйича, пробацция, йўл ҳаракати хавфсизлиги ва патруль-пост хизматлари инспекторлари ҳамда тезкор-қидирув хизмати ходими киритилади, Миллий гвардия қўриқлаш бўлинмаларининг нарядлари хизмат олиб бориши ташкил этилади.

■ Натижада – 5 тагача маҳалла микроҳудудга бирлаштирилади ва жиноятчиликнинг олдини олиш бўйича тезкор ҳаракатланиш тизими яратилади.



YUKSAK MUKOFOT SOHIBLARI

«O'G'LIM BILAN FAXRLANAMAN»

Mayor Bahrom Jumaboyev ichki ishlar organlaridagi 16 yillik xizmat faoliyatidan 12 yilini profilaktika sohasiga bag'ishladi. Toshkent viloyatining turli hududlarida xalq xizmatiga kamarbastan bo'lib kelayotgan bu inson hozirda Nurafshon shahridagi «Navro'z» mahalla fuqarolar yig'ini, profilaktika katta inspektori lavozimida faoliyat yuritmoqda.

Shuningdek, «Qumariq», «To'ytepa», «Obod turmush» va «Muqimiy» nomli mahallalar hududidagi ijtimoiy-siyosiy va kriminogen vaziyat barqarorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, aholi o'rtasida yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish hamda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida ham boy tajriba va salohiyatini safarbar etib kelayotir.

O'tgan yili birorta ham jinoyat sodir etilmagan mazkur hududda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlardan aholining ertangi kunga bo'lgan ishonchi yanada ortib, ular mahalla raisi Hayitmad Yuldoshev, hokim yordam-

chisi Husniddin Muhiddinov hamda profilaktika katta inspektori Bahrom Jumaboyevdan cheksiz minnatdor bo'lishmoqda.

Bugungi kunda 3 ming 600 nafarga yaqin aholi istiqomat qilayotgan ushbu gavjum hududda 20 dan ortiq maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari faoliyat ko'rsatmoqda. Mahalla faollarining harakati bilan 5 nafar nogironligi bo'lgan shaxsga aravachalar olib berildi. Bundan tashqari, profilaktika katta inspektori tomonidan aholini, ayniqsa, hudud yoshlarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va ularni

**Xizmat
vazifasini mas'uliyat
va sharaf bilan ado
etib kelayotgan mayor
B. Jumaboyev Qurolli Kuchlarimiz
tashkil topganining 33 yilligi
hamda Vatan himoyachilari kuni
munosabati bilan davlatimiz
rahbarining farmoniga muvofiq,
«Sodiq xizmatlari uchun»
medali bilan
taqdirlandi.**



sportga qiziqirish maqsadida turli musobaqalar tashkil etib kelinmoqda.

Lavhamiz qahramoni ustoz, iste'fodagi podpolkovnik Dilmurod Sultonovdan kasb sir-asrorlarini o'rgandi, ularni birga xizmat qilayotgan yosh xodimlarga yetkazdi, nasihat-lari bilan o'rtoqlashdi. Hozirgi kunda uning o'zi ham ko'plab shogirdlarga – kapitan Farhod Hoshimov, katta leytenant G'ayrat Ermatov hamda leytenant Nodir Jahongirovlarga ustozlik qilmoqda.

– Men ustozim, mayor Bahrom Jumaboyevdan minnatdorman, ulardan ko'p narsalarni o'rgana-man, – deydi katta leytenant G'. Ermatov. – Undagi shogirdlarga bo'lgan talabchanlik va g'amxo'rlikka doimo havas qilaman.

O'z kasbining bilimdoni, tajribali xodim B. Jumaboyev turmush o'rtog'i, o'qituvchi Shohida Jumaboyeva bilan 4 nafar farzandni tarbiyalab voyaga yetkazmoqda.

– Shunday o'g'lim borligidan faxrlanaman, – deydi uning otasi 70 yoshli Qurbonali Jumaboyev. – Boisi hozir mahalla-ko'yda hamma menga havas bilan qarashyapti.

Onasi Ubayda aya ham farzandi erishgan yutuqlardan mamnun bo'lib, ko'zlariga quvonch yoshi indi. Zero, bu dunyoda ota-ona uchun dilbandining iqbolidan ortiq baxt bo'lmasa kerak.

**Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.**

Toshkent viloyati.

PROFILAKTIKA XIZMATI

HAR ISHDA SOBITQADAM

Kechki xizmat yo'riqnomasidan so'ng hududni aylanib yurgan Qarshi tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori, katta leytenant Ilhom Boboyevga Navbatchilik qismidan qo'ng'iroq bo'ldi. Navbatchi unga «Kaxlak» mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi uy bekasi X.T.ga tegishli 9 bosh qo'y yo'qolgani haqida xabar berdi.

Profilaktika inspektori darhol ishga kirishdi. Dastlab fuqaro bilan suhbatlashib, ayoldan bolalari qo'y va mollarini dalaga o'tlatish uchun haydab borib, o'yinqaroqlik qilib qo'ylarini qoldirib kelganini bildi. So'ng cho'ponlar bilan gaplashdi va qo'shni Lagandi qishlog'ida yashovchi fuqaro 3 bosh begona qo'y dalada suruviga qo'shilganini bildirdi. Suhbat asnosida qolgan qo'ylar ham shu qishloqda yashovchi fuqarolarning suruvlariga qo'shilib ketganini bildi.

Ertasi kuni qo'y egasi bilan dalaga kelgan katta leytenant Ilhom Boboyev yo'qolgan qo'ylarni topib, egasiga qaytardi...

Lavhamiz qahramoni xizmat olib borayotgan 3300 nafardan ortiq aholiga ega «Kaxlak» mahallasi «yashil» toifada. Hududdan «Qarshi – Kasbi» qatnov yo'li o'tganini hisobga olgan profilaktika inspektori mahalla faollari bilan birgalikda «Jamoadatchilik nazorati» maskani faoliyatini namunaligacha qo'ygan. Bundan tashqari, ichki ishlar



organlarining turli sohaviy xizmatlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan targ'ibot tadbirlarida aholiga qonunbuzarliklarning mohiyati va oqibati keng tushuntirilyapti. Bu o'z navbatida ko'plab

huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olishga xizmat qilayotir.

– Mahalla aholi, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash, kasb-hunarga o'rgatish va o'qitish, ularga subsidiya, imtiyozli kreditlar olishiga ko'maklashish kabi masalalar ham diqqat markazimizda, – deydi profilaktika inspektori, katta leytenant Ilhom Boboyev. – Hududdagi maktab sport majmuasida milliy kurash, futbol, voleybol kabi qator to'garaklar tashkil etilgan. Bu to'garaklarda yuzdan ortiq yigit-qizlar sport bilan shug'ullanadi. Ular orasida viloyat va respublika chempionatlari sovrindorlari bor.

Ichki ishlar organlaridagi faoliyatini 2018-yilda davlat feldegerlik xizmatida boshlagan Ilhom Boboyev uch yil sohada faoliyat yuritdi. 2022-yildan boshlab esa Qarshi tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori vazifasiga tayinlandi.

Soha sirlarini ustoz – tuman IIB JXX HPB boshlig'i, podpolkovnik Baxtiyor Jo'rayevdan o'rgangan Ilhom berilgan topshiriqlarni bekamu ko'st bajarish, xizmat intizomi va qonunchilikka qat'iy rioya qilishi hamda xushmuomalalik xislatlari bilan hamkasblari e'tiborini qozongan.

Har ishda hamkasblariga o'rnak katta leytenant Ilhom Boboyev turmush o'rtog'i Azizaxon bilan 2 nafar farzand tarbiyasida ham sobitqadam.

**Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.**

Qashqadaryo viloyati.



★ Награжденные Родиной

ХАРАКТЕР, ОТТОЧЕННЫЙ СЛУЖБОЙ



Среди награжденных Указом Президента страны в честь Дня защитников Родины – майор Дауран Утегенов, оперуполномоченный по особо важным делам МВД Республики Каракалпакстан.

Дауран Утегенов еще в юношеском возрасте проявил интерес к службе в правоохранительных органах: он активно участвовал в мероприятиях, организуемых представителями МВД. Окончив юридический факультет Каракалпакского государственного университета имени Бердаха, начал профессиональный путь в 2011 году с должности инспектора профилактики схода граждан «Кутли конис» в Нукусе. Вместе с наставником, майором Русланом Алламуратовым, добился заметных успехов в предотвращении правонарушений. С 2013 года он продолжает служить в оперативном подразделении.

За годы службы Дауран Утегенов раскрыл множество преступлений. Одно из самых запоминающихся связано с кражей сейфа,

в котором находилось 90 тысяч долларов. Майор и его коллеги сумели выйти на след преступников.

Случай, казалось бы, незначительный – кража Wi-Fi модема, – стал ключом к разгадке. Во время допроса подростков, вызванных в качестве подозреваемых, Утегенов обратил внимание на противоречия в их показаниях. В результате выяснилось, что именно они причастны к совершению преступления. Сейф был вынесен на тележке, замаскирован травой и спрятан на берегу реки.

Сегодня майор Утегенов продолжает службу в Управлении уголовного розыска МВД Республики Каракалпакстан.

– В семье нас было четверо детей, родители были педагогами, – рассказывает Дауран. – Я

выбрал путь правоохранителя, и считаю, что мы должны быть примером для общества.

С супругой Сарбиназ они воспитывают пятерых детей. Герой очерка подчеркивает, что дети ориентируются на родителей и формируют свой характер, основываясь на их примере.

– Большая честь быть удостоенным медали «Жасорат», – делится майор Дауран Утегенов. – Это стимул работать еще лучше. Хочу выразить благодарность руководству страны. Признателен коллегам, которые поддерживают меня. Эту награду я посвящаю семье, которая вдохновляет меня на добросовестный труд.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.

Республика
Каракалпакстан.

★ День открытых дверей

НАГЛЯДНО И СОДЕРЖАТЕЛЬНО

Учащиеся Навоийского академического лицея Министерства внутренних дел и студенты педагогического университета побывали в областном УВД.

Молодежь была встречена маршем почетного караула и оркестрового ансамбля воинской части Навоийского гарнизона.

Затем студенты и учащиеся с большим интересом ознакомились с оборудованием, боевыми и специальными транспортными средствами, продемонстрированными сотрудниками мобильного отряда оперативного

реагирования и экспертно-криминалистического центра.

Показательные выступления кинологов и их питомцев по поиску наркотических средств произвели особое впечатление на молодежь.

В здании УВД молодые люди осмотрели музей, отражающий прошлое и настоящее органов внутренних дел, побывали в библиотеке.



– Сегодняшнее мероприятие мне очень понравилось, особенно библиотека. Здесь нашла книгу, которую давно искала. Впечатлений много, благодарна организаторам, – говорит студентка Навоийского

государственного педагогического университета Шарофатбону Темирова.

Махлиё ХОЛОВА,
соб. корр.

Навоийская область.





DAVOM ETAYOTGAN TO'RTINCHI AVLOD

Mirzo Ulug'bek tumanidagi do'konlardan birida o'g'irlik sodir etiladi. O'g'ri kompyuter, printer hamda boshqa jihozlarni o'marib ketadi. Tuman IIOFMB huzuridagi Tergov bo'limi tergovchisi, katta leytenant Ulug'bek Baxtiyorov qo'lga olingan gumon qilinuvchi bilan surishtiruv ishlari olib borarkan, uning sherigi ham bo'lganligini tasmol qildi.

Qing'irlikka qo'l urgan kimsa esa o'g'irlikni yolg'iz o'zi sodir qilganini aytib, so'zida turib oladi. Tergovchining do'stona suhbatida davomida o'g'irlikni sodir etgan sherigi o'zining turmush o'rtog'i ekanligini og'zidan «gullab» qo'yganini bilmay qoladi. Natijada har ikkisiga sud tomonidan qonuniy jazo tayinlanadi.

Lavhamiz qahramonining amaliyotidan bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin. U IIV Akademiyasini muvaffaqiyatli tamomlab, ilk xizmat faoliyatini Mirzo Ulug'bek tumani IIOFMB huzuridagi Tergov bo'limida tergovchi lavozimida boshlaganida katta tergovchilar – podpolkovnik Jahongir Yakubov, kapitan Aziz Asadovlar ustozlik qilishdi. Uning tirishqoq va mehnatsevarligi, o'z ishiga puxtaligi, har bir topshiriqqa mas'uliyat bilan yondashishi sohani tezda o'zlashtirib, amaliy bilimlarini mustahkamlashga turtki bo'ldi.

Aslida U. Baxtiyorovning ichki ishlar organlari sohasini tanlashida ikkilanish bo'lmagan. Chunki bobosining otasi – iste'fodagi kapitan Norboy Musulmonov ko'p yillar Jizzax viloyati G'allaorol tumani IIB profilaktika inspektori sifatida faoliyat yuritgan. Bobosi – iste'fodagi polkovnik Baxtiyor Musulmonov esa viloyat IIB tizimlarida turli mas'ul vazifalarda xizmat qilib, viloyat IIB Huquqbuzarliklarning oldini olish boshqarmasi boshlig'i lavozimidan pensiyaga kuzatilgan. Otasi – podpolkovnik As'had Musulmonov ham ko'p yillar tergov yo'nalishida qonun ustuvorligini ta'minlashda o'z hissasini qo'shib, O'rtachirchiq tumani IIB

huzuridagi Tergov bo'limi boshlig'i lavozimidan pensiyaga chiqqan.

– Farzandimning bobom, otam va mening ishimni davom ettirayotgani faxr bag'ishlaydi kishiga, – deydi Ulug'bekning otasi. – U hali yosh. Xizmatda ustozlari hamda hamkasblaridan bilmaganlarini o'rganib, jinoyat ishlarini pishiq va puxta yuritishga harakat qiladi. Ko'pincha ota-bola soatlab suhbatlashamiz. Ish yuzasidan maslahat so'rganida, o'z tavsiyalarimni berib, avvalo, to'g'ri, halol va vijdonan xizmat qilishini doimiy tarzda uqtirib boraman. O'rganishdan, so'rashdan erinmasligini bot-bot takrorlayman.

Ayni kunda Toshkent shahar IIBB huzuridagi Tergov boshqarmasi katta tergovchisi lavozimida xizmat qilayotgan katta leytenant Ulug'bek Baxtiyorovga ichki ishlar organlari sulolasining to'rtinchi avlodi ekanligi unga g'urur bag'ishlaydi. Shu bilan birga, ularga munosib bo'lishga, misqollab yig'ilgan obro'-e'tiborga dog' tushirmaslikka, aksincha, bu ishonchni halol, fidoyi mehnati bilan mustahkamlashga intiladi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.
Toshkent shahri.



Xizmat faoliyatini shartnoma asosida 2011-yil 7534-harbiy qismida boshlagan B. Nuriddinov Sharqiy harbiy okrug Serjantlar tayyorlash maktabini a'lo baholar bilan tugatgach, avval 6-batalyon nazoratchilar vzvodi texnik nazoratchisi, so'ng seksiya komandiri lavozimida davom ettirgan.

Katta serjant Sherali Vosiye, serjant Zokir Muravazov kabi ustozlaridan sohaning sir-asrorlarini o'rgangan lavhamiz qahramoni Samarqand shahridagi kichik mutaxassislarni tayyorlash maktabida o'qib, bilim va tajribasini yanada mustahkamladi.

B. Nuriddinov shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilar hamda askarlarga o'z bilim va malakalarini o'rgatib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Shuningdek, shaxsiy tarkibning ona yurt tinchligi, fuqarolarimizning osuda va xotirjam hayot kechirishini ta'minlash yo'lida fidokorona xizmat qilishlariga ko'maklashadi.

– Zimmamizga yuklatilgan vazifa juda mas'uliyatli, – deydi B. Nuriddinov. – Shu bois doimo

hushyor va sergak bo'lmog'imiz darkor. Darhaqiqat, postda turgan askarlar bir daqiqa ham hushyorlikni yo'qotmasligi kerak.

– Botirjon malakali mutaxassislarmizdan, – deydi 2-batalyon komandiri, mayor Yo'ldosh To'rayev. – U xizmatda ham, jamoat ishlarida ham hamkasblariga doimo o'rnak. Uning izdoshlari orasida kichik serjantlar – Xurshid Rahmonov, Siroj Yarashov, oddiy askarlar – Diyorbek Toshpo'latov, Ravshan Hayitovlar alohida ajralib turadi. Chunki ular ham ustozlari singari faxrimiz hisoblanadi. Ko'plab tanlovlar va sport musobaqalarida faxrli o'rinnarni olib kelishmoqda.

III darajali serjant B. Nuriddinovning oilasiga ko'pchilik havas qiladi. Turmush o'rtog'i Nargiza Amonova shifokor bo'lish bilan birgalikda yaxshi pazanda, qo'li gul chevar va saranjom-sarishta oila bekasi. Katta farzandi Sardorbek xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab tanlovida birinchi o'rinni egalladi.

Qisqasi, gullar shahri Namanganning Chust tumanida tug'ilib o'sgan Botirjon Nuriddinov o'n to'rt yildirki, yurt osoyishtaligi yo'lida o'zining halol mehnati bilan hamkasblariga o'rnak bo'lib, chinakam baxtga sazovor bo'lmoqda.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

**XIZMAT JOYI –
QOROVUL QO'SHINLARI**

Ona Vatanimizdagi bugungi tinch va osuda hayot, hamjihatlik va farovonlik bebaho boyligimizdir. Xalqimiz azaldan tinchlik va osoyishtalikni Vatan, ona, ozodlik kabi muqaddas tushunchalar qatorida ulug'lab, e'zozlab keladi. Vatan ozodligi, tinchligi va xavfsizligining sodiq himoyachilari esa mudom hurmat-e'tiborda. Ular haqida har qancha g'ururlanib gapirsak arziydi. IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli 7536-harbiy qismning 2-batalyon 2-o'qchi guruh qorovul boshlig'i, III darajali serjant Botirjon Nuriddinov ana shunday Vatan himoyachilaridan biri.

TAJRIBALI MUTAXASSIS



★ Кинологическая служба

ДРЕССИРОВКУ ПРОВОДЯТ ПРОФЕССИОНАЛЫ

Отделы кинологии органов внутренних дел начали дрессировать собак на договорной основе. Каждый желающий может записать своего питомца на курсы.

В питомнике служебно-розыскного собаководства Управления охраны общественного порядка УВД Самаркандской области сейчас на обучении четыре собаки, столько же уже прошли первые двухмесячные курсы.

По мнению руководства, открытие платных курсов поможет не только укрепить материально-техническую базу кинологической службы, но и способствовать повышению квалификации сотрудников, внедрению передовых методов работы.

Курсы включают в себя два направления – основные приемы дрессировки и обучение собак

навыкам защиты и караульной службы.

Особое внимание уделяется комплексу мероприятий по уходу, физическому развитию, ветеринарному обслуживанию питомцев.

В целях повышения интереса молодежи к сфере кинологии сотрудники подразделения проводят в образовательных учреждениях встречи. На них разъясняются цели и задачи службы, организовываются показательные выступления.

Уткир БЕРДИЕВ,
начальник питомника УООП
СОБ УВД Самаркандской
области,
подполковник.



★ Аспект профилактики

ДОВЕРИЕ ГРАЖДАН – БОЛЬШАЯ ЧЕСТЬ

В Жондорском районе Бухарской области совместные усилия государственных и общественных организаций по обеспечению стабильности и правопорядка, решению социально-экономических проблем населения приносят заметные результаты.

Ярким примером этого служит махалля Обод. Здесь проживают 3 457 человек. Обеспечение правопорядка возложено на инспектора профилактики старшего лейтенанта Маджида Шарипова.

– В нашем районе наряду с животноводством и земледелием развивается предпринимательство, – рассказывает старший лейтенант. – Регулярно провожу разъяснительные беседы с пастухами, фермерами и предпринимателями по вопросам предупреждения преступности.

Усилия инспектора дают результаты. Укрепляется правопорядок и добросо-



седство. Инспектор профилактики особое внимание уделяет конфликтным семьям. Их пять. Индивидуально занимается с гражданами, склонными к злоупотреблению алкоголем, с лицами, состоящими на учете службы пробации.

Старший лейтенант Маджид Шарипов выпускник факультета физической культуры Бухарского государственного университета. Став дипломированным специалистом, два года преподавал в районной школе № 12. С мая 2020 года на службе в органах внутренних дел. В 2023 и 2024 годах стал победителем областного этапа конкурса «Лучший инспектор профилактики».

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.
Бухарская область.

★ Лучшие среди лучших

ОБЛАДАТЕЛЬ КРАПОВОГО БЕРЕТА И ЗНАКА ОТЛИЧИЯ

Родители Шахбоза Бурибоева – Зоир ака и Махбуба ая с юных лет прививали сыну чувство ответственности, трудолюбие, целеустремленность. Ныне он военнослужащий, сержант третьей степени.

Родился герой очерка в 1993 году в Бостанлыкском районе Ташкентской области. Учебу в школе совмещал с тренировками в спортивной секции. Окончив физкультурное отделение колледжа в Газалкенте, проходил срочную службу в рядах Вооруженных Сил, где окончательно определился с выбором профессии.

В 2015 году был принят на службу в подразделение охраны ОВД города Ангrena. С 2017 года служит в войсковой части № 7535 Караульных войск МВД. Ш. Бурибоев обладает твердой волей, образцово выполняет задачи по обеспечению общественной безопасности.

– Несет службу, подавая пример молодым военнослужащим, – говорит о нем командир группы мобильного взвода особого назначения капитан Азизбек Исмоилов. – Благодаря высоким профессиональным качествам он стал обладателем престижного крапового берета. В минувшем году, успешно пройдя интенсивные испытания на определение физической силы, выносливости и психологической устойчивости к экстремальным условиям, был удостоен знака отличия «Довюркак жангчи».



– Служба в спецназе научила меня всегда быть готовым к нештатным ситуациям, успешно выполнять поставленные задачи, – подчеркивает герой очерка.

Шахбоз Бурибоев прекрасный семьянин, заботливый отец. Вместе с супругой Нафосат они растят двух сыновей и дочь, мечтая воспитать их достойными людьми.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.



KINOLOGIYA XIZMATI

«TOMIK»
BILAN BIRGA

Ayni paytda Navoiy viloyati IIB JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi 3-sonli kinologiya guruhining kichik inspektori, kichik serjant Oybek Jo'rayev xizmat iti «Tomik» bilan ko'plab musobaqalarda qatnashib, o'tgan yili ichki ishlar organlari kinolog xodimlari o'rtasida o'tkazilgan ko'pkurash musobaqasining respublika bosqichida faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritgan.

U bugun ham xizmat yo'riq-nomasiga o'z vaqtida yetib keldi. Yo'nalishlari bo'yicha tanishgach, jinoyatlarni «issiq izida» fosh etishda xizmat itlari ishtirokini oshirish, mashg'ulotlarga o'rgatishda mas'uliyat bilan yondashish lozimligi yana bir bor ta'kidlandi.

Lavhamiz qahramoni tushdan keyin «Samarqand» muntazam YPX maskaniga, nazorat-reyd tadbiriga jalb etildi. Unga qadar barcha kinologlar maxsus maydonda xizmat itlari bilan turli mashqlarni bajarishga kirishdi. Oybek ham «Tomik» laqabli jonivor bilan belgilangan harakatlarni amalga oshirdi.

– Mashg'ulotlar davomida xizmat itlarini jinoyatchini qo'lga olishga, izlarni qidirishga, giyohvandlik moddalarini izlab topishga o'rgatamiz, – deydi kichik serjant Oybek Jo'rayev. – Yangi biriktirilgan xizmat itini sohaga o'rgatish bir xil kechmaydi. Shu bois mashg'ulotlar davomida nafaqat jonivorlar, balki biz – kinolog xodimlar ham birgalikda jismaniy-jangovar mashg'ulotlarda qatnashamiz.

Xullas, kichik serjant Oybek Jo'rayev kunning ikkinchi yarmida xizmatni «Samarqand» YPX maskanida davom ettirdi. Yo'l-patrul xizmati inspektori bilan birga shubha qilingan yuk mashinalari va qo'shni viloyatdan kelgan avtotransport vositalari to'xtatilib, tekshirildi.

«Damas» avtomashinasi to'xtatilganida, «Tomik» negadir haydovchi yonida ketayotgan 45–50 yoshlardagi yo'lovchiga qarab tinmay hura boshladi. Kinolog Oybek Jo'rayev itni mashinaga yaqinroq olib borgani sari itning vajohati ortdi. Bu bekorga emas ekan. Yo'lovchining yonidan gugurt qutillariga joylangan giyohvandlik vositalari topildi. Haydovchi esa, qidiruvdagi shaxs bo'lib chiqdi.

Yigirma ikki yillik tajribaga ega Oybek Jo'rayev o'z ustida tinimsiz izlanishi va xizmat faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashishi sabab jamoa o'rtasida hurmat-e'tibor qozongan. «Xavfsiz hudud», «Qoradori» kabi tadbirlarda faol qatnashib, hudud osoyishtaligiga hissa qo'shmoqda.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



PROFILAKTIKA XIZMATI

YOSHLAR BILAN ISHLASH
ZAVQ BAG'ISHLAYDI

– deydi mayor Ikrom Bo'riyev



Jizzax shahar IIB JXX HPB profilaktika katta inspektori, mayor Ikrom Bo'riyevning Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani «To'qboy» qishloq fuqarolar yig'iniga kelishiga talaba ustidan yozilgan shikoyat sabab bo'ldi. Qisqasi, institut talabasi M.D. Jizzax shahrida o'ziga tanish bo'lgan qizni rashk qilib, haqoratlagan. Tabiiyki, jabrlanuvchi ichki ishlar organlariga murojaat qildi.

Arizani o'rganish mayor uchun biroz qiyinchilik tug'dirdi. Chunki talaba ta'tilga chiqib ketgan, kamiga uning uyali telefoni ishlamayotgandi. «To'qboy»ga yetib borganida esa M.D.ning otasi miyada qon aylanishi buzilishi tashxisi bilan shifoxonada yotganidan xabar topdi. Shu bois qonun himoyachisi talabani yaqinlariga bu yerga kelish sabablarini sezdirmadi. Ammo qishloq fuqarolar yig'ini raisi hamda hududiy profilaktika inspektori ishtirokida M.D.ga u tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik oqibatlarini tushuntirdi. Oradan 2 kun o'tgach, talaba ustidan shikoyat qilgan qiz profilaktika inspektoriga uchrashib, arizasini qaytarib olmoqchiligini bildirdi. Ma'lum bo'lishicha, yigit jabrlanuvchidan kechirim so'ragandi. O'z navbatida, mayor murojaat muallifi hamda talaba bilan muloqot o'tkazib, tomonlarning yarashuvini tegishli tartibda rasmiylashtirdi.

– Agarda talaba qilmishining oqibatlarini bilganida mazkur huquqbuzarlik yuz bermasdi, – deydi profilaktika katta inspektori mayor Ikrom Bo'riyev. – Shu bois o'zim mas'ul bo'lgan Jizzax politexnika institutida asosiy e'tiborni yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirishga qaratmoqdaman. Pedagogik jamoa bilan hamkorlikda ko'makka muhtoj talabalarni qo'llab-quvvatlash choralarini ko'ryapmiz. Davomatni tek-

shirib, darsga sababsiz qatnashmaganlar hamda ularning ota-onalari bilan suhbatlashyapmiz. Yuraklari samimiylik va g'ayrat-shijoatga to'la yoshlar bilan ishlash menga zavq bag'ishlaydi.

Darhaqiqat, mayor Ikrom Bo'riyev tinim bilmaydi. Tyutorlar bilan birgalikda talabalarining ijara uylardagi sharoitlarini o'rganadi. Bu jarayonda yong'in xavfsizligi, is gazidan zaharlanishning oldini olish, axloqiy muhit, sanitariya-gigiyena kabi masalalarga e'tibor qaratadi. Sharoit ko'ngildagidek bo'lmasa, yoshlarni talabalar yotoqxonasi yoki qulayliklarga ega uylarga ko'chirish choralarini ko'radi. Profilaktika katta inspektori talabalar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda sport musobaqalari uyushtirishda ham pedagogik jamoa bilan faol hamkorlik qilayotir.

Qolaversa, qonunbuzarlik sodir qilishga moyil yoshlarni psixologlarni jalb etgan holda aniqlaydi, ularning psixologik portretlarini tayyorlash hamda mos profilaktik tadbirlarni belgilash choralarini ko'rayotir. Bu vazifalarni samarali uddalashida mayorga 24 yillik xizmat faoliyati davomida to'plagan tajribasi, xususan, jinoyat qidiruv sohasida egallagan ko'nikmalari qo'l kelmoqda.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



SOHAVIY XIZMATLARDA

TARG'IBOT
samara bergapti

Po'lat izlarda yelib borayotgan poyezdlar uzog'imizni yaqin qiladi. Biroq ba'zan fuqarolarning ehtiyotsizligi natijasida temiryo'llarda har xil baxtsiz hodisalar yuz beradi. Bu esa turli ko'ngilsizliklarni keltirib chiqaradi.



Surxondaryo viloyati Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi Qumqo'rg'on bekati bo'linmasi xodimlari shahar-tuman ichki ishlar bo'limlari va yo'l harakati xavfsizligi xodimlari bilan hamkorlikda viloyat hududidan o'tgan temiryo'llar atrofidagi mahallalarda uchrashuv va davra suhbatlari o'tkazib, fuqarolarga tegishli tartibda temiryo'l harakat xavfsizligi bo'yicha tushuncha-

ishchi xodimlari ishtirokida davra suhbatlari o'tkazilib, ularga tegishli yo'riqnomalar berib borilayotgani ko'plab ko'ngilsiz holatlar-ning oldini olmoqda.

O'tgan yili bo'linma xodimlari tomonidan rasmiylashtirilgan 298 nafar ma'muriy bayonnomalarning 262 tasi temiryo'llarni belgilanmagan joydan kesib o'tish bilan bog'liq bo'lgan huquqbuzarliklardir. Chorva mollarini belgilanmagan joy-



lar berishmoqda. Ayniqsa, temiryo'llarga yaqin bo'lgan xonadonlarga birma-bir kirilib, xavfsizlikka oid buklet, eslatma kabi targ'ibot materiallari tarqatilmoqda. Bundan tashqari, vokzallar va poyezdlarda yo'lovchilar bilan temiryo'lni belgilanmagan joyidan kesib o'tmaslik, qo'riqlanadigan hamda qo'riqlanmaydigan temiryo'l kesishmalarida avtotransport vositalarining yo'lovchi va yuk poyezdlari bilan to'qnashish holatlari, yo'lovchi poyezd vagonlari oynalariga tosh o'tmaslik haqida suhbatlar o'tkazilayotgani yaxshi samara berayotir.

Shu bilan birga, temiryo'l korxona hamda tashkilotlari

da boqqan 25 nafar fuqaroga ham ma'muriy bayonnomasini rasmiylashtirildi.

Achinarlisi, 11 nafar voyaga yetmagan tomonidan temiryo'llarni belgilanmagan joyidan kesib o'tish, 5 nafari tomonidan temiryo'l atrofiga chorva mollarini boqish kabi huquqbuzarliklar sodir etilib, ularning ota-onalariga yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga ham bayonnomalar rasmiylashtirildi. Bu kabi holatlarga ayrim ota-onalarning farzandiga e'tiborsizligi, loqaydligi sabab bo'layotgani achinarlidir.

Nurullo QULSOATOV,
kapitan.

Surxondaryo viloyati.

FAXRIYLAR – FAXRIMIZ

EHTIROMGA MUNOSIB USTOZ

Farg'ona shahrida istiqomat qiluvchi ichki ishlar organlari faxriysi, iste'fodagi mayor Kamiljon Masharipov bu yil 82 yoshni qarshi oldi. Fidoyi ustoz o'z umrining eng kuchga to'lgan davrlarini el-yurt osoyishtaligini ta'minlashga baxshida etgan.

1970-yilda ichki ishlar organlari safiga kirib, profilaktika, jinoyat qidiruv kabi xizmatlarda ishladi. Ko'p yillar davomida Farg'ona shahrining eng kriminogen og'ir hududi bo'lgan Qirguli mavzesida faoliyat ko'rsatib, jinoyatchilikni jilovlashda jonbozlik ko'rsatdi. Keyinchalik Farg'ona shahrida joylashgan Serjantlar tarkibini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazida ishlab, sohani bilimli kadrlar bilan to'ldirishga hissa qo'shdi. O'sha davrda ko'plab yosh xodimlarga ustozlik qilib, kasbning sir-asrorlarini, odamlar bilan muloqotni, insoniy fazilatlarini o'rgatdi.

– Men ustoz Kamiljon Masharipov bilan ko'p yillar birga ishlaganman, – deydi ichki ishlar organlari faxriysi, iste'fodagi podpolkovnik Ravshan Oxunov. – U kishi juda talabchan inson bo'lish bilan birga, shogirdlariga bilganlarini o'rgatishdan erinmas edi. Ularga jinoyatlarning oqibati bilan emas, sababi bilan kurash olib borish kerakligini uqtirib, o'zi bu borada namuna ko'rsatardi.

1991-yilda ehtirom bilan pensiyaga chiqqan Kamiljon Masharipov malakali huquqshunos bo'lganligi sababli turli davlat idoralarida ishladi. Keyinroq Farg'ona davlat universitetiga ishga kirib,



15 yilga yaqin oliygohda yoshlarga huquqshunoslik fanidan saboq berdi. Yosh kadrlarni yuridik bilimlar asosida tarbiyalashga munosib hissasini qo'shdi.

Ustozning tavallud kuni har yili bayramga aylanib ketadi. Bu gal ham shunday bo'ldi. Farzandlar, nabiralar, shogirdlar uni yo'qlab kelib, ezgu tilaklar izhor etishdi.

Xususan, viloyat IIB Faxriylar kengashi a'zolari uning xonadoniga tashrif buyurib, IIV Faxriylar kengashi raisi, iste'fodagi general-mayor Erkin Norgitovning tabriknomasini, shuningdek, «Ichki ishlar organlari faxriysi» ko'krak nishonini tantanali ravishda topshirishdi.

Ehtiromdan boshi osmonga yetgan Kamiljon Masharipov

yurtimizdagi tinchlik va barqarorlik abadiy bo'lishini so'rab duolar qildi.

– Ichki ishlar organlari faxriylariga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik haqida soatlab gapirsam ham oz, – deydi ustoz. – Mana, birgina misol: Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan 80 yoshdan oshgan 30 nafar faxriy viloyat IIBga taklif etilib, ehtirom ko'rsatildi. Boshqarma rahbariyatining tabriknomasi, qimmatbaho sovg'alar berildi. Eng muhimi, birga ishlagan sobiq safdoshlarni ko'rib dilimiz yayradi, ular bilan miriqib suhbatlashdik.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

JAZONI IJRO ETISH TIZIMIDA

KITOB – MA'NAVIYAT XAZINASI

Ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibning ma'naviy-ma'rifiy bilimlarini takomillashtirishga IIV huzuridagi JIED tizimida o'tkazilayotgan tadbirlarda alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning eng asosiy vositasi kitob ekanligini inobatga olib, xodimlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib etishga urg'u berilyapti. Har yili «Eng yaxshi kitobxon» tanlovi o'tkazilib, g'oliblar munosib rag'batlantirib boriladi.

Departamentda tashkil qilingan keng va shinam kutubxonada 2200 nomdagi badiiy, ilmiy, diniy-ma'rifiy va boshqa mavzulardagi kitoblarni jamlangan. Bundan tashqari, xodimlarning talab va istaklariga binoan kutubxona fondi muntazam yangilanib, yangi nashrdan chiqqan kitoblarni dolzarb mavzudagi zamonaviy adabi-

yotlar bilan boyitib borilmoqda. Tizim muassasalarida ham jazo muddatini o'tayotgan shaxslar uchun alohida, xodimlar uchun alohida kutubxonalar tashkil qilingan.

Darhaqiqat, kitob mutolaasi insonning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirib, bilimlarini

chuqurlashtirib, so'z boyligini oshiradi. Bu esa xodimlarning xizmat faoliyatida asqatib, mahkumlar bilan tarbiyaviy tadbirlar olib borishda juda qo'l kelyapti.

Shahrizod SHOKIROV,
kapitan.



TURMUSH CHORRAHALARIDA

Ne-ne orzu-umidlar bilan kutilgan to'y ham bo'lib o'tdi. Burxon sevgan qiziga uylanganidan, Jamila esa aql-xushli, farosatli, kelishgan yigitning jufti haloli bo'lganidan xursand edi. Shu tariqa, oylar o'tib, oilada shiringina farzand dunyoga keldi. Sherzod yillar o'tib katta ham bo'lib qoldi.

– Mening ham orzu-havasim bor, – dedi bir kuni Jamila. – Hade-may o'g'limiz maktabni bitiradi. Uni oliygohlardan birida o'qitishimiz, uylantirishimiz, uyli-joyli qilishimiz kerak. Sizning topganingiz ro'z-g'or xarajatlari ham yetmayapti. Shuning uchun dugonalarim bilan savdo-sotiq qilsam.

– Ayol kishi uy-ro'zg'or, farzand tarbiyasi bilan shug'ullanmog'i kerak, – deya nasihat bera boshladi Burxon. – Men sening qop ko'tarib, bozorma-bozor yurishingni istamayman.

Jamila aytganidan qolmadi. Xullas, u dugonalari bilan o'zga yurtlarga qatnay boshladi. Besh, olti oy deganda bir martagina uyiga kelar, topgan-tutganini eriga qoldirib, yana safarga jo'nardi. Burxon ham o'n besh kun ishlab, o'n besh kun uyida bo'lar, farzandi tarbiyasiga vaqt topolmasdi. Endigina yettinchi sinfda o'qiydigan yolg'iz o'g'li Sherzod bobosining yonida qoldi. Jamila har gal safardan qaytganida, o'g'liga otasi va bobosidan yashirincha pul berar, xohlagan narsangni ayt, olib beraman, deb erkalatardi. Sherzod bora-bora mahalladagi yomon bolalarga qo'shilib ketdi. Onasi yashirincha berib ketgan pullarga «do'st»lari bilan qimor o'ynar, «Tungi klub»larda maishat qilib, tongga yaqin uyiga qaytardi.

Salim bobo esa nevarasini kutib tongni ottirar, bemahalda yurgani yaxshilik bilan tugamasligini tushuntirishga harakat qilardi.

– Endi savdo-sotig'ingni yig'ishtir! – dedi Burxon porakanda bo'lib ketayotgan oilasidan xavotirlanib. – O'g'lingning tarbiyasi bilan shug'ullan. Ikkovimiz ham uyda bo'lmaganimizdan Sherzod

ancha bebosh bo'lib ketdi. Ertaga afsuslanib qolmaylik!

Burxon xotiniga yana bir bor farzand tarbiyasi haqida tushuntirmoqchi bo'ldi. Ammo foydasi bo'lmadi.

– Unday bo'lsa, to'rt tomoning qibla! Mening sendek xotinim yo'q!

Burxonning bu gapidan so'ng Jamila uzoq safarga bormasdan

ganligini eshitgan Sherzod o'zini bu musibat-larga chidolmagandek ko'rsatib, battar quturib ketdi. Burxon esa uni to'g'ri yo'lga sololmadi. U uyidan chiqib ketib, eski «do'st»larini topdi va ularning uyida yashirincha yashay boshladi.

BEBOSSHLIK BOSHLAGAN EKAT



bozorda savdo-sotiq qila boshladi. Shu-shu oilaning tinchi buzildi. Er-xotin bir-biriga teskari bo'lib qolishdi. Sherzodning nima ish bilan shug'ullanayotgani hech kimni qiziqitmay qo'ydi.

– O'g'lingiz Sherzod o'g'irlikda gumonlanib ushlandi, – dedi kutilmaganda uylariga kelgan profilaktika inspektori. – Uning shaxsiga taalluqli hujjatlarni olib ichki ishlar bo'limiga yursangiz.

Inspektor Sherzod yomon bolalarga qo'shilib o'g'irlik qilganligini, aybini tan olganligini, o'g'irlangan tovarlarning bir qismini topib berganligini aytib berdi.

Oradan biroz muddat o'tgach, sud ham bo'lib o'tdi. Balog'at yoshiga yetmagani sababli Sherzodni tarbiya koloniyasiga yuborishdi. Oradan ikki yil o'tdi. Bu orada Jamila Burxon bilan ajrashib, yana chet ellarga savdo-sotiq qilgani jo'nab ketdi. Belgilangan muddat o'tgach, Sherzod uyiga qaytdi. Onasining otasi bilan ajrashib ketganligini, buvasining olamdan o't-

Bir kuni u bozorda o'g'irlik mollarni olib sotuvchi Gulmira ismli ayol bilan tanishib qoldi va uning yolg'iz yashashini bilgach, tezda Gulmira opanikiga ko'chib o'tdi. U shu kundan boshlab uy bekasi-ning ishonchini qozonish maqsadida sheriklarining o'g'irlik mollarni olib, unga keltirib bera boshladi. Lekin Sherzod eski qilg'ini qilib, safarda yurgan Gulmira opaning mol-mulkini «tozalab» ketdi.

Puli qolmagan Sherzod onasi-ning yoniga borib, u bilan yashay boshladi.

Lekin onasi bozorga ketganidan foydalanib, sandiqdagi barcha pullarni olib, juftakni rostlab qoldi. Jamila ana shundagina o'g'lining yomon yo'llarga kirib ketganiga aniq ishondi va tilini tishlagancha qolaverdi. Tekin daromad topishga o'rganib qolgan Sherzod sheriklaridan kalitlar yordamida qulflarni ochish sirlarini o'rgana boshladi. Bir oy deganda bu ishni uddalaydigan ustomon o'g'riga aylandi.

Bir necha xonadonlarda o'g'irlik sodir qilgan Sherzod endi bosh-

qacha uslubda jinoyat sodir qilish yo'llarini izlay boshladi. U yarim tunda ayollar kiyimini kiyib, erlari chet ellarda ishlayotgan xonadonlarni tunaydigan bo'ldi. Bu ishni ham xamirdan qil sug'urgandek silliqqina amalga oshirdi. Bunday xonadonlarning ko'pligi Sherzodning «ishtaha»sini ochib yubordi. U navbatdagi xonadonni «tozalayotganida» jinoyat ustida qo'lga tushdi. Tergov jarayonida uning jinoiy faoliyati to'raligicha fosh etildi. O'g'irlikni kasb qilib olgan Sherzod hamda uning jinoiy sheriklari oxir-oqibat uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etildi. Oiladagi ijobiy muhit insonga to'kislik, baxt, komillik ato etadi. Uni ezgulik, baxtli hayot sari yetaklaydi. Afsuski nosog'lom oilada kamolga yetgan Sherzod o'z taqdirini o'zi baxtsizlik sari burdi va yoshlikning bebaho lahzalarini panjara ortida o'tkazadigan bo'ldi.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

KASB-HUNARGA O'QITISH BO'YICHA YANGI TASHABBUS

IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti Ikkinchi mintaqaviy hudud 10-sonli tergov hibsxonasida Jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar o'rtasida sog'lom dunyoqarashni shakllantirish, ozodlikka chiqqanlaridan so'ng qayta jinoyat sodir etishlarining oldini olish maqsadida Farg'ona viloyati hokimligi huzuridagi Ijtimoiy ko'nikma markazi bilan hamkorlikda mamlakatimizda ilk bor yangi tashabbus ilgari surildi.

Farg'ona shahridagi «Ishga marhamat» monomarkazi tomonidan tergov hibsxonasida payvandlash, temirchilik, duradgorlik, chilangarlik, oshpazlik, parrandachilik, quyunchilik,



issiqxona, tikuvchilik sohalari bo'yicha o'quv kurslari yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunga qadar muassasadagi 24 nafar xo'jalik hisobidagi mahkumlar monomarkaz mutaxassisleri tomonidan shu yo'nalishlarda o'qitilib, sertifikatlar berildi.

– Yaqin kunlarda muassasa rahbariyati bilan hamkorlikda sartaroshlik, santexnika xizmatlari, mebelchilik sohalari bo'yicha ham ustaxonalar tashkil etilishi rejalashtirilmoqda, – deydi Farg'ona viloyati hokimligi huzuridagi Ijtimoiy ko'nikma markazi rahbari o'rinbosari Bahrom Madumarov.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



OILA MUSTAHKAMLIGI baxtning to'kisliligiga bog'liq

Buxoro viloyati IIB JXX HPBda faoliyat olib borayotgan podpolkovnik Quvvat Yarashov va mayor Luiza Muhsinova ahil va inoq umrguzaronlik qilib kelishmoqda.

Baxt o'z-o'zidan kelavermaydi. Inson qaysi sohada mehnat qilmasin, kasbini sevsa, uni ardoqlasa, albatta, baxtga erishadi. Lavhamiz qahramonlari ana shunday ezgu

va xayrli ishlari tufayli el nazariga tushdi.

– Ziyoli oilada tug'ilganim bois ota-onam o'qishimga alohida e'tibor qaratgan. Kitob o'qishga juda

qiziqqanman. 6–7-sinflarda mashhur yozuvchi Artur Konan Doylning Sherlock Xolms to'g'risidagi asarini o'qib, izquvarlik kasbiga qiziqishim uyg'ondi. Keyin otamning maslahati hamda orzularim bois shu sohani tanladim, – deydi podpolkovnik Quvvat Yarashov.

2010-yilda IIV Akademiyasini tugatgan Quvvat xizmat faoliyatini G'ijduvon tumani IIBda profilaktika inspektori lavozimida boshladi. Sal-kam besh yil shu tumanda ishlagach, viloyat IIB Huquqbuzarliklarning oldini olish boshqarmasida inspektor, 2018–2020-yillarda viloyat IIB Matbuot xizmati rahbari sifatida faoliyat yuritib, ayni paytda viloyat IIB HPB muhim topshiriqlar bo'yicha inspektor lavozimida xizmat qilmoqda.

Mayor Luiza Muhsinova ham yoshligidan kitobxon bo'lgan. U ona tili va ingliz tilini mukammal o'rgandi. Ammo orzulari boshqacha edi. Ko'pchilik qizlar kabi, u ham styuardessa, dizayner yoki diplomat bo'lishni orzu qilardi. Ingliz tilini o'rganishdan maqsad ham shu edi. Biroq otasi hamda o'sha kezlarda ichki ishlar organlarida xizmat qilgan yaqin qarindoshlaridan birining maslahati va tavsiyasi bilan 2008-yilda IIV Akademiyasiga o'qishga kirdi. O'quv dargohini tamomlagach, Buxoro shahar ichki

ishlar organlaridagi turli lavozimlarda, xususan, voyaga yetmaganlar bilan ishlash va xotin-qizlar bo'yicha katta inspektorlik lavozimlarida xizmat qildi. Ayni paytda Buxoro shahar IIOFMB 3-sonli IIB HPB Xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektori.

– Bizning tanishishimiz ham qiziq bo'lgan, – deydi Quvvat Yarashov. – Ikkimiz yonma-yon tumandan bo'lsak-da, azim shaharda birga o'qib, baxt ostonasiga birga qadam qo'ydik. Xalqimizda «Sarbon qayerda bo'lsa, karvon o'sha yerda» degan naql bor. Rafiqam ham har yerda maslakdosh, yelkadosh va oilada ko'makchi bo'lib kelmoqda. Xizmat zarurati tufayli turli ko'ngilsiz hodisalar, oilaviy mojarolar guvohi bo'lib, ularni muhokama qilish, rasmiylashtirish barobarida, insonga hissiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Ana shunday vaziyatlardan so'ng esa oilaga xuddi hech narsa bo'lmagandek kirib borish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Zero, kasbimiz shuni taqozo etadi, bir-birimizni tushunamiz, kerakli paytda qo'llab-quvvatlaymiz.

Sharaflı kasbdan e'zoz topgan bu ahil oila jamoada ham, mahallada ham eng namunalilardan biri sanaladi. Ular Dilshod, Laziza va Ulug'beklarni tarbiyalab voyaga yetkazishyapti. Ularning ham kelajakda ota-onalari singari, xalqqa manfaatı tegadigan insonlar bo'lib yetishishiga ishonamiz.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



BIR TUMAN TARIXI

MUQADDAS QO'RG'ON ICHRA BIR QO'RG'ON

Qashqadaryo viloyatining g'arbiy qismida joylashgan Kasbi 1970-yil 30-oktabrda Koson tumanidan alohida ajratilib, tuman maqomini olgan. U viloyatning Qarshi, Koson, Nishon, Muborak va Mirishkor tumanlari bilan chegaradosh.

Maymanoq kichik tog' tizmasi mavjud Kasbining Koson tumani bilan chegaradosh qismidan Qashqadaryo oqib o'tadi. Aholisining aksariyat qismi o'zbeklar, shuningdek, tojik, turkman, qirg'iz, koreys, tatar, ozarbayjon, arman va boshqa millatlar ham yashaydi.



Kasbi nomining kelib chiqishiga «qasaba» so'zi asos bo'lgan, degan taxmin mavjud. O'rta asrlarning arab solnomachi sayyohlaridan Istahriy, Somoniy, Yaqut al-Hamaviy asarlarida esa Kasba nomi tilga olinadi.

«Qasaba» so'zining ikki xil ma'nosi bor. Birinchisi, katta qo'rg'on, qal'a sifatida tojik xalqlari orasida qo'llanilgan. Bu so'zning ikkinchi ma'nosi



esa g'arov, qamishdir. Bunga tumanning Qashqadaryo daryosining quyi qismlarida, qamishzor hududlarida joylashganini asos qilish mumkin. Lekin, olimlarning fikricha, dastlabki taxmin ancha asosli va ishonchli hisoblanadi.

Yana bir versiya shuki, arman manbalarida hudud nomi Kazbion shaklida qo'llanib kelingan. Ularda hududiy jihatdan Kasbi hatto qadimiy Nasaf shahridan ham katta ekani aytib o'tiladi. Shuningdek, Kasbi nomi ko'plab vaqf hujjatlarida ham uchraydi.



Ko'hna manzil – Kasbi qo'rg'onining avvalgi joyi hozirgi Sulton Mirhaydar ota ziyoratgohi yonida bo'lgan. Bu yerdan Samarqanddan Hindistonga, Buxorodan Afg'onistonga, Rossiyadan Eronga yo'l olgan tuya karvonlari qo'nim topgan. Uzoq yo'lga chiqqan karvonlar dam olib, oziq-ovqat va suv g'amlab, yana yo'lida davom etgan.

Buyuk sohibqiron Amir Temur: «Kasbi muzofoti Turkistondek muqaddas qo'rg'on ichida yana bitta kichkina qo'rg'ondir», deb ta'kidlagani ham fikrimizga dalildir.

Sulton Mirhaydar ota ziyoratgohi hamda XIV asrda qurilgan masjid Kasbi qal'asining bir qismi sanalgan. Qolaversa, bu yerda joylashgan aylanasi uzunligi 16 metrdan ortiq Sardoba ham uzoq tarixdan yodgorlik. Bundan yetti asr, ehtimol, undan ham oldin bunyod etilgan mazkur suv inshootiga ishlatilgan g'ishtlarning tuprog'i Amudaryo etaklaridan olib kelingan, g'isht terish uchun qorishma alohida usulda – hayvonning suti, tuyaning yungi qo'shib tayyorlangan.

Suvni toza saqlovchi Sardobaga butun qish va bahorda yog'in-sochinlardan katta hajmda suv kelib tushgan. Karvondagi odamlar sopol idishlarga suv olib, manzillari tomon yo'l olgan. Bu, albatta, tumanda qadimdan kulolchilik rivoj topishiga sabab bo'lgan.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSII

QONUNIYLIK

DAVR TALABI

AQSHning Vashington shahrida hech bir bino Kapitoliy tepaligida joylashgan mamlakat Kongressi, ya'ni qonun chiqaruvchi organ – parlamenti binosidan baland bo'lmagligi kerak degan naql yuradi. Buning boisi mamlakatda qonun barcha narsadan ustun bo'lishi kerakligi bilan izohlashadi.

Qadimgi yunon faylasufi Arastu davlat boshqaruvi asosida qonunlar yotishi kerak deya ta'kidlagan. Chunki hatto eng yaxshi hukmdor ham hissiyotga, ruhiy hayajonga berilishi mumkin, qonun esa «muvozanatlan-gan aql»dir deb hisoblagan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 1-moddasi-ga muvofiq O'zbekiston boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatdir. Huquqiy davlatning eng muhim belgisi, prinsipi esa – bu qonun ustuvorligi. Ushbu prinsip inson huquqlari bilan bevosita bog'liq. Zero, qonunlardan ko'zlangan asosiy maqsad inson huquq va erkinliklarini ta'minlashdan iborat.

Yana Bosh qomusimizga murojaat etadigan bo'lsak, uning 15-moddasiga ko'ra, yurtimizda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritishlari lozim.

Demak, respublikamizda qonun ustuvorligini belgilovchi huquqiy baza mavjud ekan. Xo'sh, bu qoidalar qog'ozda qolib ketmasligi uchun mamlakatimizda qonuniylik va qonun ustuvorligi qay yo'sinda ta'minlanadi?

Huquqiy davlatda har bir shaxs o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishi mumkin. U davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

Jamiyat hayotida qonuniylikni ta'minlashda prokuratura organlari zimmasiga ham ulkan mas'uliyat yuklangan.

rining asosiy vazifalaridan biri sifatida aynan qonun ustuvorligini ta'minlash ham ko'rsatib o'tilgan. Qolaversa, ular fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish

ommaviy axborot vositalari xodimlariga yo'llagan tabrigida jamiyatimizda ochiqlik va oshkoralikni rivojlantirish, davlat idoralari va ularning mansabdor shaxslari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, fuqarolarimizning qonuniy murojaatlarini o'rganish va hal qilish borasida ularning o'rni e'tirof etib: «Kuyunchak va olijanob jurnalistlarimiz,

fuqaro sifatida o'zimiz yashaydigan mahallada atrof muhitni muhofaza qilyapmizmi? Iste'molchi sifatida ichimlik suvini isrof qilmaypimizmi?

Kimdir bular mayda masalalar-ku deyishi mumkin. Lekin katta qonunbuzarliklar ham kichik qoidabuzarliklardan boshlanadi. Qonunlarga doimo rioya qilishi uchun kishining vijdoni uyg'oq, eng sergak nazoratchi bo'lishi kerak. Chunki odam ba'zan qonunga ham, boshqa nazoratchilarga ham chap berishi mumkin, lekin vijdonga chap berib bo'lmaydi. Vijdon uyg'oqligi birinchi galda ma'naviy, huquqiy tarbiya bilan bog'liq. Tarbiya esa beshikdan qabrgacha davom etadigan jarayondir.

Mamlakat hayotida qonun ustuvor bo'lmasa, odamlarning davlat idoralari-ga ishonchi yo'qoladi. Ular adolat, haqiqat, tenglik shunchaki quruq so'zlar ekan degan xulosaga keladi. Natijada o'zlari ham qonunlarni aylanib o'tishga harakat qiladi. Qaysiki mamlakatda qonunlarga rioya qilinmasa, korrupsiya avj oladi, iqtisod oqsaydi. Bunday mamlakatga chet ellik tadbirkorlar ham sarmoya kiritishni istashmaydi. Eng ayanchlisi, ma'naviy tanazzul yuz beradi.

Muxtasar qilib aytganda, rivojlanishni istagan jamiyat qonun ustuvorligiga erishishi shart. Zero, qonuniylik bugungi kunda davr talabidir. Shunday ekan, yurtimizda qonun ustuvorligini ta'minlash uchun aholini huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish zarur. Bu barchani qonunga bo'ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash demakdir.

Bobomurod TOSHEV,
o'z muxbirimiz.
Azamat PIRNIYAZOV
tarjimasi.

“AVVALAMBOR, DAVLATIMIZ RAHBARI HAMYUURLARIMIZNING HUQUQLARI VA ERKINLIKARIGA, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI VA QONUNLARIGA RIOYA ETILISHINING KAFILI HISOBLANADI. QOLAVERSA, QONUNLARNING BAJARILISHI USTIDAN PARLAMENT NAZORATI O'RNATILGAN. KONSTITUTSIYAVIY SUD ESA QONUN CHIQUYUVCHI VA IJRO ETUVCHI HOKIMIYATLAR-NING HUUJATLARI ASOSIY QONUNIMIZGA MOSLIGINI KO'RIB CHIQUADI.

Chunki Bosh qomusimizning 143-moddasiga asosan, mamlakatimiz hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi-ning Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi.

Yurtimizda qonuniylikni ta'minlashda ichki ishlar organlarining alohida o'rni bor. O'zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonunida ushbu soha xodimla-

va profilaktikasini amalga oshirish orqali ham jamiyatda qonuniylik hukm surishiga hissa qo'shishadi.

Yuqorida qayd etilganlardan ko'rinib turibdiki, jamiyatda qonuniylikni ta'minlash davlat idoralari xodimlarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Yana shuni alohida ta'kidlashni istardikki, qonunlarga amal qilish borasida birinchi galda mansabdorlarning o'zlari namuna bo'lishlari lozim. Amaldorlar qonunbuzarlik sodir etsalar, davlatning obro'yiga putur yetkazadilar.

Bugungi axborot asrida qonuniylik jamiyat hayotining odatiy me'yoriga aylanishiga erishishda ommaviy axborot vositalari, internet nashrlar va ijtimoiy tarmoq faollari ham katta o'rin tutadi. Prezidentimiz o'tgan yilda Matbuot va

faol bloggerlarimiz o'zlarining qat'iy pozitsiyasi, haqqoniy so'zi bilan hayotimizdagi o'tkir muammolarni hal etish, islohotlarimizning samarasini oshirish, yurtdoshlarimizning fikrini, dunyoqarashini yuksaltirishga munosib hissa qo'shmoqdalar», – deya ta'kidlagan edilar.

To'g'ri, qonun ustuvorligini ta'minlashda nazorat hech shubhasiz kerak. Lekin jamiyatimizda qonuniylikning qaror topishi avvalambor har birimizga bog'liq. O'zimizga savol beraylik. Piyoda yoki haydovchi sifatida yo'l harakati qoidalariga har doim ham rioya etamizmi? Bir



Maqolani qoraqalpoq tilida o'qish uchun QR-kodni skaner qiling.





«YO'QOLINGIZ, YORUG'LIKNI TO'SATURGAN BULUTLAR»

Jadidlik harakati, xususan, jadid adabiyoti tarixiga so-biq ittifoq davrida turlicha yondashuv bilan qaraldi. O'sha paytdagi mafkura korchalonlari bu harakatni g'ayriil-miy ravishda baholadi. Bir necha avlodga o'z bobolari «dushman» sifatida tanitildi. Aslida jadidlik harakatining asos-negizida millat va Vatan tuyg'usi, istiqbol va istiqbol qayg'usi mujassam. Shunday g'oya va fikri uchun jadidlar qamaldi, surgun etildi, qatag'on qilindi.

Jadidlik harakati faollaridan biri iste'dodli shoir va jamoat arbobi – Botu (Mahmud Hodi-yev) edi. U o'zining tarjimai holidi: «Men Botu – Mah-mud Maqsudovich Hodi-yev 1904-yil 14-mayda Toshkent-ning «Qaldirg'och» mahallasida mahsido'z – kambag'al oilasida tug'ilganman...» deb yozadi. Boshlang'ich ta'lim-ni eski usuldagi maktabda olgan Botu dastlab Moskva-dagi Pokrovskiy nomli institut qoshidagi ishchilar fakulteti-da (1921), so'ngra Moskva davlat dorilfununining iqtisod fakultetida o'qib, oliy ma'lu-motli bo'lib yetishadi. Shun-dan keyin u o'sha yillarda Res-publika poytaxti Samarqandga qaytib, adabiy va ijtimoiy faoli-yat bilan mashg'ul bo'ladi: parti-ya va davlat muassasalarida faollik ko'rsatib, yoshlarning «Alanga» jurnaliga muharrirlik qiladi.

Adabiyotga bo'lgan mehr Botuga onasi Zayniddin qizi To'xtaxondan o'tgan. U ijodiy faoliyatini 1920-yillarda bosh-ladi. 1921-yilda «Farg'ona» gazetasida muharrirlik qildi.

1925-yili Toshkentda uning «Umid uchqunlari», she'riy to'plami nashrdan chiqadi. Mana shu to'plam sabab Abdurauf Fitrat shogirdiga «Botu» adabiy taxallusini be-radi. 1929-yilda esa uning «To'liqlarim» she'riy to'plami chop etildi. To'plamlaridagi she'rlarida yosh shoirning samimiy va hayajonli tuyg'ulari ifoda etilgan.

Shuningdek, hikoyalari, publitsistik maqola va ocherk-lari «Bilim o'chog'i», «Inqi-lob», «Alanga», «Maorif va o'qituvchi» singari jurnallarda

chop etiladi. Adibning bolalar adabiyotiga bag'ishlangan «Bolalar yolg'oni», «Mening kitobim» kabi hikoyalar to'pla-mi ham mavjud.

Botuning she'rlarida por-loq, ozod kelajak uchun ku-

zamonasining yetuk adiblari Fitrat va Cho'lponlar bilan muntazam aloqa qilib turdi. Hatto Cho'lpon uning o'g'liga ism qo'yib berdi. Fitrat uni adabiyot bilan shug'ullanish-ga undagani haqida o'zining tergov materiallarida qayd etib o'tgan.

She'rlarida millatni rivojla-nishga, ilm olishga, ma'rifatga chaqiriq yetakchilik qilgan. O'zbekiston milliy ensiklope-diyasida uning jadidlar yetuk-laridan bo'lgan Munavvarqori ijodidan ilhom olganligi qayd

o'rta maktablarining birinchisi sanaladur... Qizil Rusiyadagi ishchi-dehqonlarining o'rta maktabini bitirgan o'zbek yoshlaridan o'rtoq Botu bi-rinchiginadir. O'rtoq Botu bi-rinchi hukumat dorilfununining iqtisod fakultetiga o'qishga kirdiki, kelgusida iqtisodchi-larimizdan biri bo'lg'usidir».

Keyinchalik iqtisod bo'limini tugatib kelganidan so'ng u haqda «Yer yuzi» gazetasi ham 1927-yil 18-sonida maqola chop etadi: «Botu Hodi-yev Moskovda davlat dorilfununi-

komissiyalari tarkibida faoliyat olib bordi.

Uning siyosiy faoliyati haqi-da akademik Naim Karimov quyidagicha fikr bildiradi: «Shu yillarda respublika rah-barlarining umid ko'zi Botuga qaratilgan edi. Ular Botuni partiyaviy ishlarda pishitib, so'ng respublika miqyosidagi yuqori martabalariga ko'tarish niyatida edilar. Uning 1929-yil 28-avgustda Xalq maorif kom-missari o'rinbosari etib tayin-lanishi ham shu maqsaddagi dastlabki qadamlardan edi».

1930-yil 23-iyulda Botu o'zi sadoqat bilan xizmat qilgan va katta ishonch bildirgan tuzum uni tuhmat bilan qamoqqa oldi. Unga «Xalq maorif komissarligida aksilingqilobchi va millatchilar guruhining rahbari» degan jiddiy ayb qo'yildi. Yoz oyida qamoqqa olingani uchun Moskvaga olib ketilganida yupqa kiyimlarda bo'lgani Botuning o'zi shun-doq ham dardmand badaniga Rossiya sovug'i jiddiy xavf soladi. Qamoqda yotganida bir necha bor aybsiz ekani haqida yordam va muruvvat so'rab markazga xat yozadi. Lekin u ham millat dushma-ni tamg'asi ostida 1938-yil 8-mayda Moskvada otib tash-langan.

Botu Moskvada o'qib yur-ganida Valentina Petrovna Vasileva bilan tanishib turmush quradi. Turmushidan bir o'g'il va bir qiz dunyoga keladi. O'g'lining ismi Erkli Hodi-yev, qizining ismi esa Naima Mah-mudova. Ikkala farzandi ham tibbiyot sohasining yetuk mu-taxassislari, tibbiyot fanlari dok-tori, professor darajasini olgan.

Botu milliylik uchun kurashdi va qatag'on qurboni bo'ldi. Ijodkorning xotirasini abadiy-lashtirish maqsadida Tosh-kent ko'chalaridan biriga va maktabga Botu nomi berilgan.

**Sarvar SOBIROV
tayyorladi.**



rash asosiy g'oyaga aylana-di. Xususan, «Qo'zg'olish», «Isyon», «Bizning tovush», «U kun», «Yosh yurak to'liqlari» kabi o'nlab she'rlarida hayot, kurash, kelajak tushunchasi bosh mavzudir. Binobarin, shoir o'z yurti, eli osmonini musaffo ko'rishni xohlaydi:

*Yirtilingiz, ey yaramas,
qora qalin pardalar,
Hech yovuqsiz yulduzlarning
nurli yuzi ochilsin!
Yo'qolingiz, yorug'likni
to'saturgan bulutlar,
Yurtimizga eng yuksakdan
yorug'liklar sochilsin!*

Botuning ijodiy faoliyati-ga Moskvadagi yillar katta ta'sir ko'rsatdi. U yerda Botu

etilgan. Botu O'zbekistonda arab alifbosidan lotin alifbo-siga o'tish tarafdorlaridan biri bo'lgan. U Turkiston va O'zbekistondagi siyosiy ja-rayonlarda ham faol ishtirok etgan. Shuning uchun ham uning ishchilar fakultetini tugatib, Toshkentga qaytishi matbuotda katta shov-shuv bo'lgan.

«Turkiston» gazetasining 1923-yilgi 21-iyul sonida «O'rtoq Botu Turkistonga qaytdi» sarlavhali maqolasida quyidagilar keltiriladi: «Yosh shoirimiz o'rtoq Botu bu yil Moskovdagi birinchi hukumat dorilfununi ishchilar fakulteti-ni bitirdi. Bu fakultet Rusiya

ning iqtisod fakultasini yaqin-da bitirib, O'zbekistonga keldi. Bu yil O'zbekistonda ishlab, diplom ishini bajaradi. O'rtoq Botu hozir Samarqandda Markaziy firqa qo'mitasining ixtiyoridadir. Botu o'zbeklar orasida iqtisod fakultasining to'ng'ich bolasidir».

Botu qaytganidan keyin siyosiy faoliyatga kirishdi. 1927-yilda O'zbekiston kom-partiyasining markaziy qo'mi-tasida instruktor, Samar-qanddagi markaziy partiya maktabida voiz va rahbar vazi-fasini bajardi. Keyin markaz-qo'mning matbuot bo'limiga mudir bo'ldi. Siyosiy faoliyat-da kompartiyaning bir qator



 Урок духовности и просвещения

ЗАКОННОСТЬ – ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ

«В обществе, где правит закон, всегда будут справедливость, общественно-политическая стабильность, экономический рост и развитие, будут обеспечены защита прав, интересов и достоинства человека».

Шавкат МИРЗИЁЕВ.

В условиях масштабных преобразований в политико-правовой, социально-экономической и духовной сферах Узбекистана реализация принципа законности – важнейшее условие устойчивого развития общества, гарантия прав и свобод граждан, залог экономического роста и процветания нации.

Статья 1 обновленной Конституции провозглашает Узбекистан правовым государством. Законность представляет собой базовый принцип, который подразумевает обязательность соблюдения и исполнения законов всеми участниками правовых отношений. Это фундаментальный постулат, обеспечивающий равенство всех перед законом, справедливость и правопорядок.

Статья 15 Основного закона определяет безусловное верховенство Конституции и законов. Без законности невозможно эффективное функционирование государственных институтов. Законность, в свою очередь, направлена на повышение доверия граждан к органам государственной власти.

Правовое государство и гражданское общество требуют высокой правовой культуры, что напрямую отражается на состоянии законности. Правовая культура – основа развития демократического общества и показатель зрелости правовой системы.

Активная гражданская позиция, сопричастность к проводимым демократическим преобразованиям, участие граждан в общественных инициативах и контроле за деятельностью власти также являются факторами повышения и укрепления законности. Каждый из нас должен осознавать свою ответственность за соблюдение закона.

В соответствии со ст. 36 Конституции граждане могут участвовать в управлении делами общества и государства посредством общественного контроля. Такой контроль осуществляется над деятельностью государственных

органов по обеспечению исполнения требований законодательства в сфере защиты прав и законных интересов граждан, юридических лиц, интересов общества.

Немаловажна в укреплении законности, правопорядка, защите прав человека роль институтов гражданского общества. К примеру, СМИ стали на сегодняшний день трибуной для выражения мнений, а также защитниками прав граждан. За последние годы их количество в Узбекистане увеличилось на 41 процент. Сегодня данный показатель превышает 2140. В два раза выросло количество журналов (с 309 до 623), а число зарегистрированных интернет-изданий выросло на 88 процентов. Большую популярность обрели социальные сети, платформы, которые стали медиа-площадкой для представителей «народной журналистики»,

родными договорами и соглашениями. К примеру, реализован комплекс правовых и судебных реформ, направленных на продвижение и защиту основных прав и свобод человека, повышение эффективности системы правосудия в соответствии с международными стандартами. Ратифицирована Конвенция о



помогающей выявлять нарушения законности.

Укрепление законности требует системного совершенствования законодательства. Полнота, четкость и однозначность формулировок норм, отсутствие правовых коллизий или пробелов способствуют эффективному решению социальных проблем.

С учетом интеграции Узбекистана в мировое сообщество осуществляется целенаправленная деятельность по гармонизации законодательства с междуна-

правых инвалидов, сформировано законодательство по поддержке женщин и обеспечению гендерного равенства, внедрены инновационные подходы для повышения доступа населения к правосудию, расширен мандат Уполномоченного Олий Мажлиса Республики Узбекистан по правам человека (Омбудсмана).

Особое значение в укреплении законности имеет эффективная деятельность государственных органов, осуществляющих охрану прав граждан. В частности,

целью 87 Стратегии «Узбекистан-2030» для защиты законных интересов, чести и достоинства граждан предусмотрены: внедрение Единого электронного реестра, предусматривающего возможность наблюдения через индивидуальный номер и QR-код за процессом от возбуждения уголовного дела до вынесения приговора; полная цифровизация деятельности по сбору и закреплению доказательств; ведение электронной версии всех уголовных дел и материалов, обеспечение электронного документооборота по ним.

В Узбекистане проводятся комплексные меры по противодействию коррупции: создано соответствующее Агентство; принимаются целевые государственные программы; внедряется электронная платформа «Виртуальная академия по противодействию коррупции» по расширению знаний граждан и госслужащих в сфере противодействия коррупции; и др. Цель 81 проекта Государственной программы на 2025 год, проходящей общественное обсуждение, предусматривает осуществление оценки уровня подверженности коррупции не менее 500 руководителей, а также сотрудников, находящихся в резерве на эти должности.

Древнегреческий философ Гераклит отмечал: «Граждане должны отстаивать законы полиса так же, как и его крепостные стены, и даже еще решительнее». Обеспечение законности способствует достижению всеобщего благополучия. Только через эффективное законодательство, независимые и справедливые суды, борьбу с коррупцией, надлежащий надзор за законностью с участием общества возможно построение правового демократического государства.

Людмила ЮГАЙ,
доктор юридических наук.



PROFILAKTIKA XIZMATI

BOLA KO'CHADA QOLMASIN



– Bugun nega yerto'lada yotding?
– so'radi chamasi 12 yoshli boladan mahalla profilaktika inspektori, kapitan Komil Hayitov.

– Ota-onam uydan haydavord.

– Biron narsa yedingmi?

– ...

Komil o'yga soldi: «Qanaqa odamlar-a, bular? Kimlardir tirnoqqa zor, bular esa to'rt muchasi soppa-sog', aqlli-hushli bolasini ko'chaga tashlab qo'ygan-a?! Esiz, hayf ota-ona degan nom...»

U avval bir necha bor bolani uyiga olib borib, ota-onasiga «Farzandingizni uydan haydamang, aks holda, sizlarni ota-onalik huquqidan mahrum qilish bo'yicha tegishli idoralarga xat kiritaman», deb ogohlantirgan. Ammo ularga ichkilik bo'lsa bas, bola kerak emas.

Ogohlantirishlar natija bermasligini anglab yetgan profilaktika inspektori bolani mashinasiga o'tqazib, Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga olib ketdi.

Komil uyida kunda-kunora bo'ladigan janjallardan bezib tunlarni yerto'lalarda o'tkazgan bo'lsa-da, qardron go'shasidan ayrilgisi kelmayotgan bolakayning ko'ziga qarashga jur'at topolmadi. Uning ko'zida achchiq yosh qalqib turgani shundoq ko'rinib turardi.

– Afsuski, o'tgan yili 10 nafar bolani Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtir-

dik. Qarovsiz va nazoratsiz qolgan bunday bolalarning ko'zida yalt etgan yoshni ko'rib, dilingiz og'riydi. Bu ko'z yoshlar yuragingizga oqqandek bo'ladi. Bunday salbiy holatlarning oldini olish maqsadida ichkilikbozlikka ruju qo'ygan 3 nafar, muqaddam sudlangan 5 nafar shaxsni profilaktik hisobga oldik, – deydi Sergeli tumanidagi «Sadoqat» mahallasi profilaktika inspektori, kapitan Komiljon Hayitov kuyungancha.

Darhaqiqat, o'tgan yili 220 nafar fuqaroga nisbatan ma'muriy choralar ko'rilgan. 2 nafar fuqaro ma'muriy qamoqqa olingan, 2 nafari Toshkent shahar IIBB Reabilitatsiya markaziga joylashtirilgan.

4100 nafardan ortiq aholi istiqomat qiladigan mahalla ko'rilgan profilaktik chora-tadbirlar samarasi o'laroq, bugun «yashil» toifada. 1101 ta oiladan 9 tasi «Temir daftar»ga kiritilgan. «Ayollar daftari» ro'yxatidagi xotin-qizlar soni esa 110 nafarni tashkil etadi. Imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratish, o'zini o'zi band qilish va korxonalarga ishga joylashtirish hisobiga o'tgan yili 97 nafar fuqaroning bandligi ta'minlanishiga erishilgan. Bularning barchasi hudud-da jinoyatchilikka qarshi kurashishda ko'ngildagidek natijalar qo'lga kiritilishida muhim asos bo'lmoqda.

Shuhrat RO'ZIYEV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

JONKUYAR INSPEKTOR
yoshlarni jipslashtirishga muvaffaq bo'ldi

Katta leytenant Jamoliddin Sindarov besh yildirki, Payariq tumanidagi «Fitrat» mahallasida xizmat olib bormoqda. Shu davr mobaynida o'ziga birlashtirilgan hududda bironta ham jinoyat sodir etilmadi. Chunki u yoshlarni jipslashtirishga muvaffaq bo'ldi.

– O'n nafar yosh yigitdan otryad tuzib, ularni tungi vaqtda jamoat tartibini saqlashga jalb etdim, – deydi profilaktika inspektori, katta leytenant Jamoliddin Sindarov. – Yigitlar bunga bajonidil rozi bo'lib, navbatchilikka kirishishdi. Fikrimcha, bu o'z samarasini beryapti. Mahallamiz tuman markazida joylashgan bo'lsa-da, hududdagi eng xavfsiz mahalla hisoblanadi. Lekin faollar qo'llab-quvvatlamagani-da, aholi zich joylashgan hudud-dagi ishlarni bir o'zim uddalay olmagani bo'lardim.

Jamoliddin Sindarov 2020-yilda Samarqand davlat

veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetini tamomlagan. Ichki ishlar organlaridagi ilk xizmat faoliyatini Payariq tumanidagi 4 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladigan «Fitrat» mahallasi profilaktika inspektori sifatida boshladi.

Shubhasiz, har qanday profilaktika inspektorining muvaffaqiyati hudud aholisini jipslashtira olish mahoratiga va muhtojlarga yordam ko'rsatishiga bog'liq.

– Hududda muqaddam sudlangan 12 nafar fuqaro istiqomat qiladi, – deydi kat-



ta leytenant J. Sindarov. – Ularni ish bilan ta'minlashga va muammolarini hal qilishga harakat qilaman. O'tgan yili mahallamizda yashovchi 49 yoshli fuqaroni ishga joylashtirdim, u qo'shnilari bilan janjallashib, jazo muddatini

olgan va probatsiya ro'yxatida turardi. Erkak hozir zavodda ishlaydi va uch farzandni tarbiyalamoqda.

Yaqinda mahallaga Mux-lisa Raimqulova kelib, uyiga pechka va ko'mir olishga puli yo'qligidan shikoyat qildi.

QO'SHIN A'LOCHISI

SAFDOSHLARIGA O'RNAK

Yigitlik burchini IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli Navoiy shahrida joylashgan 7532-harbiy qismda o'tagan Saidjon Bobonov xizmatni shu yerda shartnoma asosida davom ettirdi.

Ilk xizmat faoliyatini o'qchi lavozimida boshlagan lavhamiz qahramoni yillar davomida kasb mashaqqatlarini sabr va matonat bilan yengib o'tdi. Bunda ustozlari II darajali serjant Dilshod O'sarovning yordami beqiyos bo'ldi.

Hozirda mazkur harbiy qism seksiya komandiri lavozimida xizmat qilayotgan kichik serjant Saidjon Bobonov qo'l ostidagi shaxsiy tarkibning jangovar tayyorgarligi, harbiy intizomi va axloqiy-ruhiy holatini muntazam o'rganib, qism qo'mondonligi tomonidan berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bekamu ko'st bajarib kelmoqda.

– Saidjon qalbi qaynoq, haqiqiy vatanparvar yigit, – deydi harbiy qism komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik Akrom Alimov. – U xizmatda ham, jamoat ishlarida ham safdoshlariga namuna. O'tgan davr ichida ko'plab shogirdlar ham yetishtirdi. Kichik serjantlar Bahridin Umarov, Nodir Hayitboyev hamda oddiy askar Abdulkarim Karimov shular jumlasidandir.

Uning uzoq yillik fidokorona xizmatlari munosib baholanib, mam-lakatimiz Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 33 yilligi hamda Vatan

himoyachilari kuni munosabati bilan Ichki ishlar vazirining buyrug'iga muvofiq «Qo'shin a'lochisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Bunday e'tibordan ruhlangan Saidjon endilikda yanada g'ayrat va shijoat bilan yurtimiz tinchlik-xotirjamligi yo'lida xizmat qilmoqda.



– Inson o'z oldiga qat'iy maqsad qo'yib, astoydil intilsa, unga albatta erisharkan, – deydi lavhamiz qahramoni. – Mana o'n besh yildirki, o'zim sevgan sohada faoliyat yuritib, kam bo'lmadim.

Bugungi kunda kasbidan baxt topayotgan S. Bobonov turmush o'rtog'i Nilufarxon bilan Sabohat va Imronbek ismli farzandlarini yaxshi niyatlarda tarbiyalab voyaga yetkazishmoqda.

Vadim TO'XTAYEV,
IIV Qorovul qo'shinlari
qo'mondonligi axborot
guruhi boshlig'i, oddiy askar.

Uning turmush o'rtog'i pul to-pish uchun chet elga ketgan, lekin oilasini moliyaviy jihatdan umuman ta'minlamayotgan ekan. Mahalla yettilligi ayolga homiylar topishga yordam berdi, uning xonadoniga pechka o'rnatildi. Mahalla esa ayolga moddiy yordam ajratdi. Bu yil oliygohga o'qishga kira olmagan Sardor Begiyevga ham yordam ko'rsatildi. Yigitga motokultivator olib berildi. Endi u o'z vaqtini foydali mehnatga sarflaydi.

Yosh inspektor Vatanga xizmat qilishdek bu mashaqqatli yo'lni tanlaganidan biron marta ham afsuslanmagan. Aksincha, sharaflilik xizmatidan doim faxrlanadi.

Zamira BOLTAYEVA,
o'z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.



★ Наши таланты

СИЛА ИСКУССТВА

В 2018 году Зарипбай Омирзаков был назначен помощником инспектора профилактики в одну из махалл Караузякского района. Однажды капитан Азамат Нуржанов, инспектор профилактики, сказал ему: «Зарипбай, МВД Каракалпакстана организует конкурс талантов. У тебя есть музыкальные способности. Почему бы не принять участие?»



С небольшим колебанием, но все же согласившись, З. Омирзаков начал готовиться к конкурсу. Результат оказался неплохим. Исполненная в эстрадном жанре композиция получила положительную оценку жюри, Зарипбай был отмечен в номинации «Лучший талант».

Герой очерка родился в Караузякском районе. После окончания сельскохозяйственного профессионального колледжа поступил на факультет музыкального образования Каракалпакского государственного университета имени Бердаха.

После окончания вуза некоторое время преподавал в детской школе музыки и искусства № 16 Караузякского района. С 2018 года на должности помощника инспектора профилактики. Участвуя в вышеупомянутом конкурсе, стал лауреатом и был принят в состав ансамбля МВД Каракалпакстана «Арал жулдызлары».

Зарипбай около 6 лет служил рядовым сотрудником в ППС МВД Каракалпакстана. В настоящее время является помощником дежурного дежурной части Караузякского РОВД.

З. Омирзаков успешно участвует в смотрах-конкурсах различного уровня. В 2021 году занял первое место в конкурсе «Любители художественного искусства», организованном МВД Каракалпакстана. В 2022 году стал победителем конкурса «Свободная и процветающая жизнь в Новом Узбекистане», проходившего в Ташкенте. В 2023 году занял первое место в конкурсе МВД Каракалпакстана «Выбираем таланты». Он вносит достойный вклад в успешную деятельность ансамбля «Арал жулдызлары».

– Искусство возвышает человека. Музыка, хорошая песня придают нам душевные силы. Песни, которые мы исполняем, прославляют Родину. Мне повезло учиться у опытных сотрудников ансамбля, – говорит З. Омирзаков. – В настоящее время в моем репертуаре 15 песен данного жанра. Помимо исполнения песен, увлекаюсь сочинением музыки. Написал мелодии к 10 песням.

Бахит КУТЛИМУРАТОВ,
подполковник.

★ Грани мастерства

Старший преподаватель боевого цикла Института повышения квалификации МВД подполковник Жалолиддин Жумабоев посвятил службе в органах внутренних дел 25 лет.

После окончания с отличием Ташкентского высшего военно-технического училища служил в Академии МВД. Присущие ему организаторские способности, трудолюбие, чувство ответственности способствовали профессиональному росту. Являлся заместителем начальника курса очного обучения по воспитательной работе. В 2021 году герою очерка было присуждено ученое звание «доцент».

Учитывая многолетнюю педагогическую деятельность, Ж. Жумабоев был переведен в Институт повышения квалификации МВД, где ныне продолжает плодотворно служить.

Вместе с супругой Сабохат опой они воспитывают трех дочерей и двоих сыновей: Садокат, Севинч и Фаёзиддин – студенты, Аслиддин – лицеист, а младшая дочь Жозиба посещает детский сад. Родители прививают детям любовь к знаниям, стремятся сформировать их достойными людьми.

Соб. корр.



★ Сотрудничество

ДЕЙСТВЕННЫЙ МЕХАНИЗМ
ПРОФИЛАКТИКИ

Студентов дневной формы обучения в пяти высших учебных заведениях Джизакской области насчитывается свыше 17 тысяч.

Для предупреждения правонарушений в сентябре 2024 года на основании совместного решения правоохранительных органов и руководства трех крупных вузов области были созданы общественные патрульные группы «Қалқон» («Щит»).

Каждая группа состоит из двух десятков студентов, которые содействуют деятельности инспекторов профилактики, тьюторов и махаллинских «семерок». В случае выявления несоблюдения установленных правил в высшем учебном заведении или общежитиях, они информируют органы внутренних дел.

Также члены групп совместно с ответственными лицами помогают в повышении правовой культуры студентов, организации пропагандистских мероприятий, связанных с обеспечением пожарной безопасности, разъяснением ПДД. Большинство этих молодых людей планируют связать свое будущее с правоохранительными органами.

В 2024 году количество правонарушений, совершенных студентами, сократилось на 35,7 процента. В этом есть заслуга и членов патрульных групп.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.

Джизакская область.



«ОДАМЛАР МЕНИ КЎРИШСА, ҚЎРҚИШАДИ»

Голливудни забт этган ўзбек актёри билан суҳбат

– Ижодингизнинг илк пойдевори қандай қўйилган?

– Йўлдош Ҳайдаровнинг 2000 йилда суратга олинган уч қисмдан иборат фильмидан дебютим бошланган. «Жетон» лақабли салбий қаҳрамонни гавдалантирганман. Мақсад ўғирлик, турли жиноий фаолиятларни очиб бериш эди. Бу фильм кўп йиллар намойиш этилди. Ижодимнинг дастлабки пойдеворида келсак, фильмдаги дебютимгача фақат Муқимий номидаги Ўзбекистон давлат мусикали театрида актёр сифатида роллар ижро этиб келганман.

Мен ижоддаги пойдеворни театрда қўйиб тўғри қилганман, деб ҳисоблайман. Негаки, бу фаолиятимнинг кейинги жараёнларида ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлди. Ўзбекистон халқ артистлари – Ҳусан Шарипов ҳамда Бахтиёр Ихтиёровлар каминани театрга олиб келишган. Бу даргоҳда 35 йил ишлаб, пенсияга чиқдим. Театр билан ҳамоханг тарзда санъат олийгоҳида ёшларга сабоқ бердим. Саҳнадаги ролларим жуда кўп, асосан тарихий спектаклларда чиқардим. 80 дан ошиқ ролларни ўйнаш насиб қилди. «Тоҳир ва Зухра» спектаклидаги Қора Ботир, «Юсуф ва Зулайхо»даги Фиръавн сингари ижроларим айниқса катта шуҳрат қозонди.

– **Маъруф Отажонов каскадёрлик ҳақида нима дейди?**

– Институтни тугатиб, 1983–1985 йилларда Ашхободда ҳарбий хизматни ўтаганман. Тарихий фильмларда катта саркардаларни ўйнаш учун қиличбозликни ўрганганман. Олийгоҳда ўқиб юрган пайтларимда карате билан профессионал равишда шуғулланганман. Бундан ташқари, учинчи синфдан бошлаб, акробатика билан ошно тутинганман. Томлардан сакраб ўтиш, роллардаги турли жанговар саҳналарни ижро этиш менга муаммо туғдирмаган. От устида қиличбозлик, турли хавфли ҳаракатлар ўзим томонимдан бажарилган. Ҳозир ёшим улғайгани сабаб, каскадёрлик сал оғирлик қилади.

– **Оилангиз тўғрисида биз билмаган сирларни очсангиз...**

– Дадам Қуранбой Отажонов катта ҳофиз бўлган, қўшиқлар куйлаган. Туғилиб ўсган жойимда Шукур Бурҳонов номидаги мусикали драма театри бўларди. Унинг қурилишида отамнинг ҳиссаси жуда катта бўлган. Икки акам ҳам санъаткор, Тожикистонда ижод қилишади. 50 йилдирки, Тошкентда яшайман. Оиламдан ҳозирча фақат ўзим Ўзбекистондаман. Яқинларимни кўриш учун тез-тез бориб тураман.

Театр ва кино актёри, каскадёр Маъруф Отажонов 1961 йил 3 февралда Тожикистоннинг Хўжанд вилоятида туғилган. 1978–1983 йилларда Тошкент давлат театр ва рассомлик санъати институтида ўқиган. «Ойқиз эртаги», «Ота», «Алданган аёл», «Сув ёқалаб», «Ҳазо», «Макрли дунё», «Динозавр қолдирган из» каби бир қатор фильм ва сериаллардаги роллари орқали томошабинлар меҳрини қозонган.

– **Оддий одамлар орасига кирганингизда сизни қандай қабул қилишади?**

– Қўрқишади. Бемалол қўлини бигиз қилиб кўрсатишади. Ёнларидан ўтиб қолсам ёки кўчада кўришса «У ёмон одам, гаплашиб ҳам бўлмаса керак», дейишади. Буни эшитиб, мийиғида кулиб қўяман. Мен ҳаётда аслида бошқача бўлсам-да, уларнинг тасаввурларида кинодаги ролларим сингари ёмонман. Фақат салбий роль ижро этганман-да... Салбий роль ўйнаш, тўғриси, қийин ва бутун дунёда қадрланади.

Чунки ёмон одамлар образини яратиб бера олиш учун ҳазилакам меҳнат қилинмайди. Ўғрию ватанфурушларни, мафиялару контрабандачиларнинг хатти-ҳаракатларини нолдан ўрганиб, томошабинга етказиш осон иш эмас...

– **Дунё кино оламига чиқа олган кам сонли ўзбек актёрлари сирасига кирасиз. Хорижда қайси машҳур фильмларда суратга тушдингиз?**

– Америкада истиқомат қиладиган Баҳодир Йўлдошев режиссёрлигида Голливудда суратга олинган фильмда бобокалонимиз Амир Темурни ўйнаганман. У ролни жонлантириш учун жуда кўп китобларни ўқишимга тўғри келган. Чунки қаҳрамоним шахсиятини чуқур билмай туриб, унинг ҳаётини очиб беролмасдим. Энг катта ролим шу, деб ўйлайман. Кейин турклар суратга олган «Ҳукмдор Усмон» сериалида Чингизхоннинг невараси Гейхату образида чиқдим. Netflix томонидан ишланган фильмдаям роль ўйнаганман...

Актёр агар дунёга чиқмоқчи бўлса, танилишни истаса, албатта, спорт билан шуғулланиши шарт. Бу унга ҳар томонлама асқатади. Агар актёр формада бўлмаса, унинг танилиши осон кечмайди. Спорт, ўқиш, спорт, ўқиш. Мана шу актёрни юксалтиради.

Италияда Голливуд ижодкорлари билан учрашувга чақирилдим. Дунёнинг энг олди актёрлари билан роль ижро этяпман. Мен ўзбекман, уларнинг олдида ҳеч қачон иккинчи даражага тушиб қолишни истамайман, ижрода ёки тенг бўлишим ёки улардан ўтишим керак. Асосийси, ғурурни сақлай билиш лозим. Мен ҳар бир ролимга рингга чиққандай киришаман.

Улардан ўтишни истайман. Шу сабабли ўз устимда мунтазам ишлайман.

– **Доим қарздорлик ёки мамнунлик ҳиссини туйишингизга сабабчи бўлган инсонлар борми?**

– Албатта, улар икки киши. Биринчиси, менинг ўқишдаги устозим Абдурахим ака Сайфиддинов. Санъат соҳасида олган бутун олқишларим ва эътирофларимни у кишига бағишлайман. Менга саҳна нутқини, актёрлик маҳоратини, тоза гапиришни ўргатган. Ўзининг жуда кўп вақтини менга сарфлаган. Театрда эса Ўзбекистон халқ артисти Ҳамза Умаров. Биз илк бор танишганимизда 23 ёшда эдим. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзийнинг «Паранжи сирлари» спектаклида ота-ўғил ролини ўйнаганмиз. Бу мен учун жуда катта шараф. Устознинг бўйлари паст, 165 сантиметр атрофида эди. Лекин у киши саҳнага чиққанида 2 метрга айланарди. Маҳоратига қойил қолмасдан илож йўқ эди. Ҳар бир томошабиннинг нигоҳини ўзига жамлаб оларди.

– **Ички ишлар органлари, ҳуқуқ-тартибот идоралари ходимларининг фаолияти билан яхши таниш бўлсангиз керак...**

– Шубҳасиз. Жиноятчиликка қарши курашиш йўналишидаги, асосан Ҳилол Насимов фильмида салбий ролларни ўйнадим. Бундан ташқари, Россияда контрабандачилар, наркобаронлар ролини ҳам ижро қилдим. «Гаров» номли фильмим бор. Унда ҳуқуқ-тартибот идоралари билан жиноятчилар ўртасида кескин қарама-қаршиликлар акс этган. Ички ишлар органлари ходимларининг юрт тинчлиги ва осойишталиги йўлидаги хизматларини бир икки сўз билан таърифлаб бера олмайман...

Аброр ПОЁНОВ суҳбатлашди.



ANDIJON VILOYATI

«MUNOSIB DAVOMCHI
BO'LAMAN!»

Bugun ichki ishlar organlarida namunali xizmat qilayotgan faol va tashabbuskor yosh xodimlar ko'pchilikni tashkil etadi. Andijon viloyati IIB JXX HPB Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi psixologik ta'minlash guruhi psixologi, katta leytenant Karimjon Abdurahmonovni ham shular safiga kiritish mumkin.

U 2021-yildan buyon ichki ishlar organlari safida. «Yoshlar fidoyisi» ko'krak nishoni sohibi.

Karimjon muntazam ravishda voyaga yetmaganlar bilan individual suhbatlar va psixologik konsultatsiya ishlarini o'tkazib keladi.

– O'tgan yili markazga qarovsiz va nazoratsiz qolgan 714 nafar voyaga yetmagan o'g'il-qiz joylashtirildi. Ularning ijtimoiy ahvoli o'rganilganida 654 nafarining ota-onasi borligi, 50 nafarining otasi yoki onasi hamda 3 nafarining hech kimi yo'qligi ma'lum bo'ldi. Voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida hamkor tashkilotlar bilan manzilli ishlar tashkil etilmoqda, – deydi lavhamiz qahramoni.

Haqiqatan ham, markaz xodimlari tomonidan voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish borasida aniq manzilli ishlar olib borilyapti. Jumladan, o'tgan yili 10 nafar voyaga yet-


magan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga joylashtirilishi ta'minlandi.

Karimjon otasi doim u bilan faxrlanishini istaydi. Negaki, u kasb tanlashda aynan padari buzrukvoriga izdosh bo'lgan. Uning otasi Mahmudjon Abdurahmonov uzoq yillar viloyat IIB huzuridagi Qo'riqlash boshqarmasida xizmat qilib, hozirda qarilik gashtini surmoqda.

– U kishiga munosib davomchi bo'lishga intilaman va ota kasbimdan g'ururlanaman. Shu bois o'z ustimda ishlashdan to'xtamaslik orqali ko'proq yutuqlarga erishish uchun harakatlardan, – deya qo'shimcha qiladi u.

Yosh xodim doimiy izlanishda, kitobga oshno tutingan. Ishonamizki, u izlanish va intilishdan aslo to'xtab qolmaydi va xizmatda katta yutuqlarga erishadi, albatta.

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.



*Sabr – insonni
maqsadiga eng tez
olib boradigan yo'l
ko'rsatuvchidir.*

Jaloliddin RUMIY.

JIZZAX VILOYATI

QILICHINI
QO'LDAN
BERMAYDI

Qilichboz qizlar haqidagi ko'rsatuvni oxirigacha ko'zini ekrandan uzmay tomosha qilgan Sabina onasining qo'ldan mahkam tutib: «Onajon, men ana shu to'garakka boraman», – deb turib oldi. Yetti yoshli qizining ko'zlaridagi qat'iyatni sezgan Nodira opa uni Jizzax shahridagi «Sug'diyona» sport majmuasi tomon yetakladi. Shu-shu sport qizaloq hayotining mazmuniga aylandi. Binobarin, dastlab 2 soat, biroz ulg'aygach, 6–8 soat vaqtini sevimli mashg'uloti uchun ajratardi.

Yuragida ichki ishlar organi xodimi bo'lish orzusi uyg'ongan Sabina IIV Jizzax akademik litseyi o'quvchilari safida ham chanqoqlik bilan bilim oldi, qilichbozlik bilan shug'ullanishda davom etdi. Pirovardida mamlakat miqyosida o'tkazilgan qator musobaqalarda shohsupaning yuqori pog'onalariga ko'tarildi. Mazkur g'alabalari qahramonimizning IIV Akademiya-siga qabul qilinishida muhim o'rin tutdi.

Sabina Shakirova kursantlik chog'ida ham mamlakat miqyosida uyushtirilgan 6 ta musobaqada zafar quchdi, 2021-yilda MDHga a'zo davlatlar sportchilari ishtirokida poytaxtda tashkil qilingan xalqaro musobaqada g'olib bo'ldi.

O'qish davomida Sabinaning merganlik borasida ham yaxshigina qobiliyati namoyon bo'lgani bois kundalik mashg'ulotlari qatoridan ushbu sport turi ham joy oldi. Natijada 3 yil ketma-ket IIV Akademiya-si chempioni, 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari oliy ta'lim muassasalarida

kursant qizlari o'rtasida o'tkazilgan musobaqada to'pponchadan o'q uzish bahslarida g'olib bo'ldi.

O'tgan yili IIV Akademiya-sini muvaffaqiyatli tamomlagan leytenant Sabina Shakirova Arnasoy tumani IIB huzuridagi Tergov guruhida surishtiruvchi lavozimida faoliyatini boshladi, 10 dan oshiq jinoyat ishini ustozlari ko'magi va nasihatlar bilan mustaqil ko'rib chiqdi.

Tabiiyki, Sabina qilichbozlikni ham tashlab qo'ygani yo'q. Xizmatdan qaytgach, 2 soat mashq qiladi. O'tgan yili sentabr oyida Toshkent shahrida O'zbekiston kubogi uchun o'tkazilgan bahslarda bronza medal sohibi bo'ldi.

Hozirgi kunda esa lavhamiz qahramoni aprel oyida bo'lib o'tadigan qilichbozlik bo'yicha O'zbekiston chempionatiga qizg'in hozirlik ko'rmoqda. Unga ushbu musobaqada omad yor bo'lishini tilaymiz.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.





Наши корреспонденты сообщают



Специалист правовой статистики

Служба в органах внутренних дел требует особых качеств, прежде всего — высокой степени ответственности.



Герой очерка старший сержант Рустам Рахимбердиев демонстрирует это качество в полной мере.

После прохождения срочной службы в Вооруженных Силах в 2005 году был при-

нят в батальон столичного Управления охраны.

Овладеть профессией ему помогали наставники — командир отряда майор Рустам Махмудов и начальник группы капитан

Сирожибдин Раупов. По их совету Рустам поступил на Высшие курсы по подготовке сержантского состава Академии МВД республики. Успешно окончив курсы, продолжил службу в Информационном центре ГУВД города Ташкента.

В настоящее время старший сержант Рустам Рахимбердиев является специалистом в Центре правовой статистики и оперативно-учетной информации. В его обязанности входят ведение учета преступлений, регистрация и обработка исполнения судебных решений, отслеживание движения уголовных дел и их окончательных решений, подготовка статистических отчетов. Стремление к самосовершенствованию, углублению знаний мотивировали его к поступлению на заочный факультет Академии МВД.

Вместе с супругой Камолахон они воспитывают двух сыновей и дочь. Старший сын Иброхим учится на втором курсе Академического лицея № 1 МВД. Дочь Зиёда и младший сын Умаржон школьники.

ВМЕСТЕ ПРОТИВ НАРКОТИКОВ

В городе Ташкенте с 15 января по 15 февраля проводится месячник «Безопасная и здоровая столица». Сотрудники ОВД во взаимодействии с иными правоохранительными органами осуществляют комплексные оперативно-профилактические мероприятия, направленные на обеспечение общественной безопасности, в том числе по противодействию незаконному обороту наркотических средств и психотропных веществ.

* * *

В ходе специального мероприятия сотрудники оперативно-розыскных подразделений ГУВД города Ташкента и УКД ОВД Яккасарайского района задержали 52-летнего Дониёра Н. При личном досмотре с участием понятых при мужчине было обнаружено 5 граммов вещества коричневого цвета с резким специфическим запахом, которое изъято в качестве вещественного доказательства. Во дворе дома, где



проживает Дониёр Н., оперативники обнаружили 79 свертков аналогичного вещества. Назначена судебно-химическая экспертиза, документы в установленном порядке переданы в следственное подразделение.

* * *

В Мирабадском районе задержан молодой человек по имени Жасур. В ходе личного досмотра при нем обнаружен сверток из белой бумаги, внутри которого было вещество зеленоватого цвета со специфическим резким запахом. Мужчина заявил, что данное вещество он получил от некоего Маъруфа. Оперативное мероприятие было продолжено...

При личном досмотре с участием понятых при Маъруфе было обнаружено 62 спичечных коробка, внутри которых было вещество с характерным цветом



и специфическим запахом, а также травянистое вещество, завернутое в целлофан и бумагу. По данному факту возбуждено уголовное дело по ч. 5 ст. 273 УК Узбекистана.

* * *

Уважаемые соотечественники! Каждый из нас может внести свой вклад в создание безопасной и здоровой среды для себя и своих близких. Примите активное участие в мероприятиях месячника.

Если вы располагаете информацией о лицах, причастных к незаконному распространению наркотических средств и психотропных веществ, о рисующих наркограффити, «закладчиках», сообщите по телефону 71-206-44-79 или через Telegram-бот @stopnarko_bot ([https:// t.me/stopnarko_bot](https://t.me/stopnarko_bot)). Ваша анонимность гарантирована.

ЗАЛОГ БЕЗОПАСНОСТИ

В рамках «Дня профилактики правонарушений» сотрудники специализированных служб ГУВД Ташкентской области каждый четверг проводят ряд мероприятий, направленных на предупреждение правонарушений.

Особое внимание уделяется профилактике преступлений, разрешению социальных проблем населения, повышению правовой культуры граждан.

Ответственные сотрудники организовали встречи и профилактические беседы с населением в махаллах, входящих в категорию

«красных». Проведен обход домов с целью изучения социально-бытовых условий граждан, выявления факторов, способствующих правонарушениям. Ситуация с преступностью, ее причины и последствия обсуждались с участием общественности.

В частности, в Уртачир-чикском районе обсуждены

факты нанесения телесных повреждений и семейного насилия, определены практические меры по их предотвращению. С лицами, состоящими на учете службы пробации, проведены беседы. Предприняты меры по направлению лиц, склонных к употреблению алкогольных напитков и наркотических веществ, на принудительное лечение.

Проводимые мероприятия способствуют укреплению правопорядка, обеспечению верховенства закона в обществе.



JINOYAT MUHOKAMASI

NAFSINI TIYGAN SULTON BO'LUR

2020-yildan 2024-yilning ikkinchi yarmiga qadar Forish tumanining Oybek nomli mahalla fuqarolar yig'ida joylashgan avtomobillarga siqilgan gaz quyish shoxobchasi mansabdor shaxslari 8 milliard 326 million so'mlik tabiiy gazni talon-toraj qilishgani fosh qilindi. Bu jinoyatga tabiiy gaz ta'minoti korxonalarining bir necha mutasaddilari bosh qo'shgani aniqlandi. Agarda kommunal sohani nazorat qiluvchi idoralar vakillari o'z vaziri

falarini mas'uliyat bilan bajarganlarida edi, mazkur qonunbuzarlik sodir bo'lmadi.

Ushbu fikrlar Forish tumanida aholi vakillari, huquqni muhofaza qiluvchi va kommunal tizimlar vakillari ishtirokida o'tkazilgan jinoyat muhokamasi avvalida bildirildi. Chunonchi, Paxtakor tumanining «G'alaba» mahallasidagi avtomobillarga siqilgan gaz quyish shoxobchasi mansabdorlari qariyb 784 million so'mlik tabiiy gazni talon-toraj qilishgani aytiladi.



Yig'ilishda ichki ishlar organlari xodimlari kommunal soha vakillari bilan hamkorlikda o'tkazgan reydlar natijalari tilga olindi. Jumladan, 2024-yil davomida ana shunday tadbirlar natijasida Forish tumanida energiya manbalari bilan bog'liq 110 ta qonunbuzarlik aniqlangan. O'z navbatida, energiya resurslaridan oqilona foydalanish, kommunal to'lovlarning undirilishi, kuz-qish mavsumida ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar hamda aholi turarjoylarini issiqlik bilan ta'minlash, korrupsiyaga

qarshi kurashish borasida qilingan ishlar ko'rib chiqildi.

Shuningdek, yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilish hamda is gazidan zaharlanishga yo'l qo'ymaslik masalalariga e'tibor qaratildi. Tadbir yakunida kommunal sohada qonunbuzarliklarning oldini olish yuzasidan mas'ullarga topshiriq va tavsiyalar berildi.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



QILMISH-QIDIRMISH

TOVLAMACHINING
«TOBI QOCHDI»

O'zbek xalq maqollarining birida: «Ori bo'lmagan yigitdan nomusli qiz yaxshi», deyilgan. Xuddi qo'shtirnoq ichidagi qahramonimizdek. U yigitlik nomiga dog' tushirdi. Ya'ni, birovning rafiqasini yo'ldan urib, unga xushomad qildi. Doimiy muloqotlar asta-sekin jiddiylashib, xufiyona uchrashuvlar oqibatida ayol ham uni yoqtirib qoldi. Biroq yigitning orsizligi yuzaga chiqqa boshladi. Tovlamachilik ketidan aysh-ishrat qilishni o'ziga odat qilib oldi. U avvaliga bezbetlarcha ayoldan 200 AQSH dollari qarz so'radi, bir oydan so'ng yana shuncha oldi. Pullarni qaytarishni esa xayoliga keltirmasdi.

Ayolni yalang'och tushgan suratlarini tarqatish bilan qo'rqitdi.

Buni eshitib, ayolning rangi oqardi. U bergan qarzlardan voz kechdi. Ammo yigit: «1000 AQSH dollari bermasang, bilib qo'y, o'sha suratlarini ishxonangga va turmush o'rtog'ingga jo'natib sharmanda qilaman», deb do'q urdi. Noiloj qolgan ayol tilla taqinchoqlarini sotib, aytilgan pulni qo'sh-qo'llab berdi. Lekin yigit va'dasining ustidan chiqmadi. Yana shuncha pul talab qildi...

Tinimsiz tahdidlardan sabr kosasi to'lgan ayol huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ariza bilan murojaat qildi. Viloyat IIB xodimlari maxsus tezkor tadbir o'tkazib, tovlamachini jinoyat ustida ushlashdi.

Yana bir misol. Buxoro shahar «Varaxsha» mahallasida

nikohsiz yashab kelayotgan er-xotin til birlashtirib, anchadan beri tanish bo'lgan ayol va uning bo'lajak turmush o'rtog'ini «Telegram» messengeridagi akkauntlarini birlashtirib, o'zaro yozishgan ishqiy mazmundagi yozishmalari, almashilgan foto va video yozuvlarini ko'chirib olishga erishishadi. So'ng ushbu ma'lumotlarni ayolning oila a'zolariga ko'rsatish bilan qo'rqitib, 5000 AQSH dollari talab qilishadi. Ayol buncha pul berolmasligiga ko'zi yetib, viloyat IIBga ariza bilan murojaat qiladi. Tezkor tadbir davomida tovlamachi er-xotinlar talab qilingan pullardan 3000 AQSH dollarini olayotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlendi.

Bu borada ayrim qizlari-miz yigitlardan qolishmaydi. Ayniqsa, Shofirkon tumanida yashovchi bir ayol sharmsiz-

lik – sharmandalik nishoni ekanligini unutdi. Gap shundaki, u anchadan beri tanishi bilan ishqiy munosabatda bo'lib, uni uyali telefoniga muhrlaydi. So'ngra ushbu «manzara»ni yigitning yaqinlariga ma'lum qilish yo'li bilan qo'rqitib, 1000 AQSH dollari talab qiladi.

Viloyat IIB xodimlari tezkor tadbir davomida ayolning pinhona uchrashuviga hamda tovlamachiligiga chek qo'ydi. So'ng holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atildi. Hozirgi kunda tergov harakatlari olib borilmoqda.

Jinoyatning katta-kichigi bo'lmaydi. Ko'pchilik shayton yo'ldan urdi deb, arzimasi gunoh qiladi-yu, keyin o'zini tiya olmaydi. Bora-bora qilmishi kufriklik bilan tugaydi. Bunga yuqoridagi voqealar misol bo'la oladi.

Xulosa shuki, agar inson o'zidagi yaxshi xislatlarni tarbiya qilsa, undan quvvat olsa, komillik maqomini oladi. Mabodo inson salbiy sifatlariga mayl ko'rsatarkan, oxir-oqibat u tubanlashib, nafs qurboniga aylanadi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

TUZOQQA
TUSHIRISH «SAN'ATI»

Izzat (ism-shariflar o'zgartirildi) muqaddam sudlangan bo'lishiga qaramay, unga berilgan yengillikdan tegishli xulosa chiqarish o'rniga yana uch bora jinoyatga qo'l urdi. Birovlarning ishonchiga kirib, chuv tushirishni kasb qilib olgan bu kimsa har safar sudda ikki nafar voyaga yetmagan farzandini ro'kach qilib, yengillik berishlarini so'rar, qilmishiga pushaymonligini aytib, endi bu yog'iga halol yashashga va'dalar berardi. Lekin jazoni o'tab bo'lgach, yana eski qilg'ini qumsab, nayranglarini davom ettiraverardi.

U uyali aloqa vositalari oldi-sotdisi bilan shug'ullanishni niyat qilib, mas'uliyati cheklangan jamiyat ochdi. Poytaxtning yirik aloqa vositalari bilan ulgurji savdo qiluvchi do'konlaridan tovar olib, ustiga narx qo'yib sotish bilan mashg'ul bo'ldi. Kunlardan bir kun do'konga kelgan Izzatga ulgurji sotadigan sotuvchi endi nasiyaga bermasligini faqat naqdga sotishini aytadi. Mollarni sotilganidan keyin pulini berish sharti bilan burch pul yo'q edi. U tanishi

Jabborga qo'ng'iroq qilib qarz so'radi.

Sodda, oqqo'ngil Jabbor puli bor-u, ammo avtomashina sotib olmoqchiligini aytadi. Izzat esa uni tuzoqqa tushirish «san'ati»ni ishga soladi. U pul berib qo'llavorsa, o'z yonidan pul qo'shib, zavoddan o'z narxida mashina olib berishga Jabborni ishontiradi. Uning 11.000 AQSH dollarini olarkan, besh kun ichida mashina bilan birga qaytarishga lafz qiladi. Afsuski, Jabborning soddadilligi pand berib, besh kun emas, bir necha oylab uning va'dalariga ishonib keldi. «Hojatbaror»i chuv tushirganini kech anglagan jabrdiyda ichki ishlar organlariga murojaat qilishga majbur bo'ladi.

Jinoyat ishlari bo'yicha Sergeli tuman sudida N.Izzatning qilmishlari o'rganib chiqildi. Sud jinoyat oqibatida yetkazilgan zararining to'liq qoplanganligi, jabrlanuvchining unga nisbatan da'vosi yo'qligi va yengillik berish haqidagi fikrlarini inobatga olib, unga nisbatan sanksiya doirasida tegishli jazo tayinladi.

Doniyor NUSRATILLAYEV,
kapitan.

Toshkent shahri.



▶ TANLOV G'OLIBLARI

**BAHSLARDA
TOBLANYAPMIZ****– deydi mayor
Fotima Ibragimova**

«Vaqt borida shoh asarlarni o'qib qoling, aks holda, bunga ulgurmaysiz», degan edi donishmandlardan biri. Kitob o'qishning shaxs kamolotida muhim ahamiyatga egaligi haqida nozik didli, tafakkuri keng kitobxonlar zavq va shavq bilan so'zlashadi.



Chortoq tumani IIB Tashkiliy bo'linmasi murojaatlar bilan ishlash guruhi katta inspektori, mayor Fotima Ibragimovaning nomini ko'pchilik hurmat bilan tilga oladi. Uning teran fikrlashi, faoliyatida erishayotgan yaxshi ko'rsatkichlarini ham qahramonimizning kitob ko'p mutolaa qilishi bilan bog'lash mumkin.

Fotima bolalikdan zukko, tirishqoq qiz bo'lib, Chortoq shahridagi 53-ixtisoslashtirilgan maktab-internatini tamomlab, IIV Akademiyasida o'qib yurgan kezlarda ham bo'sh vaqtlarini behuda o'tkazmas edi.

– O'zbek adabiyotining noyob durdonalarini o'qirganman, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir, Said Ahmad, Mirmuhsin, Pirmuqul Qodirov, Asqad Muxtorning asarlarida o'zbekona ruh sezilib turadi. Millatimizning o'ziga xos urf-odatlarini, qadriyatlarini, yuksak insoniy fazilatlarini butun bo'y-basti bilan namoyon bo'ladi, – deydi Fotima o'z fikrlari bilan bo'lishib.

Yaqinda Namangan viloyati IIBda ayol xodimlar hamda IIV Namangan akademik liseyi o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan «Eng yaxshi kitobxon xodima» ko'rik-tanlovida Fotima Ibragimova faxrli birinchi o'rinni egalladi.

– Bu kabi tanlovlar topqirlik, mushohada etish salohiyatini, bilimningizni oshiradi. Ayni paytda tanlovning respublika bosqichiga tayyorgarlik ko'ryapman. Do'stona uchrashuvlarda respublikamiz viloyatlarida faoliyat olib borayotgan hamkasblarimiz bilan yaqindan tanishamiz, tajriba almashamiz. Olg'a borishga, o'z ustimizda ishlashga undaydigan bu kabi tanlovlar ichki ishlar sohasida ham o'tkazilayotgani nur ustiga a'lo nur bo'lmoqda, – deydi tanlov g'olibasi Fotima Ibragimova.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

Navoiy viloyati IIB rahbariyati hamda shaxsiy tarkibi viloyat IIB JXX Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi yo'l-patrul xizmati batalyoni YPX inspektori, safdor

Jasurjon MUHAMMADOVning

bevaqt vafot etganligi munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur ta'ziya bildiradi.

▶ MUSHTARIY MINBARI

«OTANGGA RAHMAT!»

Leytenant Umrzoq Ibragimov uchun navbatdagi ish kuni og'ir o'tdi. Shunga qaramay, qonunni chetlab, o'zini ming tusga solgan tovlamachilarning kirdikorlari fosh qilindi. Bir emas, o'nlab fuqarolarni chuv tushirib kelayotgan firibgarlar to'dasining qilmishlariga chek qo'yildi.



Yangiyer shahar IIB Tezkor qidiruv xizmati Jinoyat qidiruv bo'limi xodimi, leytenant Umrzoq Ibragimov bu sohada xizmat qilayotganiga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q.

– Qalbi fosiq, nafsi buzuq, o'z manfaatidan boshqa hech narsani ko'rmaydigan odamlar bilan yuzlashganda, har gal dilim og'riydi. Lekin ularning qilmishlari dalillar bilan fosh qilinganida, ayniqsa, jabrlanuvchilarning minnatdorlikdan «Ota-onangizga ming rahmat!» degan gaplarini eshitganimda, qalbimda mamnunlik hissi paydo bo'ladi. Shunday kezlarda shu kasbni tanlaganimdan ko'nglim g'ururga to'ladi, – deydi qahramonimiz.

U. Ibragimov ustozlarining «Bu kasbni tanladingmi, qishning sovug'i-yu yozning issig'iga chidashing kerak. Firibgarlar hiyla-yu nayrangini bilish uchun psixolog, ashaddiy jinoyatchini

kurashda yengishing uchun sportchi bo'lishing lozim. Xullas, shularni eplasang bu sohada ishlay olasan» deganlarini bir zum unutmaydi. Qiy-nalgan kezlari oddiy traktorchi bo'lgan otasining kun-u tun mehnat qilib, halol yedirib-ichirgani, birovdan kam qilmay o'qitib-o'stirgani, onasi Gulsara opaning ham o'quvchilarga, ham farzandlariga ta'lim-tarbiya berganini eslaydi. Bo'sh vaqt topdi, deguncha kitob varaqlaydi, o'qib-o'rganadi, izlanadi.

Toki yurtimiz tinch bo'lsa, oilalar xotirjam yashasa, farzandlar o'ynab-kulsa, talabalar ilm olsa va bunday totli hayot uchun Umrzoqdek yigitlarimiz halol va fidoyilik bilan xizmat qilsa, bunday sarmazmun hayotga ne yetsin. Sizlar borki, elimiz tinch, osmonimiz musaffo. Boringizga shukur.

Nodira DO'STMATOVA.

Sirdaryo viloyati.

▶ KASB FIDOYISI

INTILGANGA TOLE YOR

Ilm izlash – hayotiy zarurat. Yurtimizda ta'lim olish, malaka oshirish uchun barcha sharoitlar yetarli. O'qib-o'rganib, yuqori marralarni egallashning ayni zamonasi.

Xizmat joyimizda «Eng yaxshi kitobxon» tanlovi, «Zakovat» intellektual o'yini bo'lib o'tdi. Ushbu tanlovlarda ishtirok etib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdim.

Boshlig'imiz, polkovnik Urazbay Qurbanbayev va uning o'rinbosari podpolkovnik Q.Bekmuratov menga IIV Akademiyasining sirtqi ta'limi yo'nalishida o'qishga topshirish uchun maslahatlar berishdi.

«Hechdan ko'ra kech», degan naql bor xalqimiz orasida. Shundan so'ng 2022–2023-o'quv yilida Sirtqi ta'limga qabul qilindim. Akademiyada ta'lim zamon talablari darajasida tashkil etilgan. O'quv jarayonlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'tkazilayotgani tinglovchilarning mutaxassislikka oid bilim hamda amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ushbu nufuzli bilim dargohida ta'lim olayotganimdan faxrlanaman. Shu kunga qadar erishgan yutuqlarimda, ota-onam va ustozlarimning hissasi katta. Ofitser bo'lish istagida yurardim. Hademay orzuyim ushaladi. Do'stlaringa juda havas qilardim. Shunday ekan, oliy ma'lumotli bo'lish istagida yurgan hamkasblaringa ham zamonaviy bilimlarni puxta egallashni, vaqt qadrini anglashni, mehnatdan qochmaslikni tavsiya qilaman.

Ulug'bek QURBONOV,

IIV huzuridagi JIED 6-mintaqaviy hudud 2-son TM xodimi, safdor.



IIV AKADEMIK LITSEYLARIDA

YURTNING BO'LAJAK HIMOYACHILARI

kamolga yetayotgan maskan

NIHOL

yoshlar sahifasi

Farg'ona viloyati. O'tgan yili Ichki ishlar vazirligi tarkibidagi akademik litseylar va «Temurbeklar maktabi» harbiy-akademik litseyi o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan «Ajdodlar merosi bilimdoni» kitobxonlik ko'rik-tanlovida litsey o'quvchisi Muhammadfozil Ismoilov 1-o'rinni qo'lga kiritgan. Yana bir bilimdon o'quvchi Husniyabonu Sobirjonova esa o'zbek tili fanidan respublika olimpiadasi g'olibi sanaladi.

Ta'lim maskanida ishlayotgan o'qituvchilarning 5 nafari esa respublika miqyosida o'tkazilgan ko'rik-tanlovlarning g'olibi va sovrindoridir.

O'tgan o'quv yilida litseyini 194 nafar o'quvchi muvaffaqiyatli tamomlagan bo'lib, ular IIV Akademiyasi, Davlat xavfsizligi akademiyasi, harbiylashgan oliy ta'lim muassasalari, O'zbekiston va xorijiy oliy ta'lim dargohlariga o'qishga kirdi. Oliy ta'limga kirish ko'rsatkichi esa 80 foizdan oshdi.

Hozirgi kunda 50 nafardan ziyod bilimdon o'quvchilar xorijiy tillarni bilish va milliy sertifikatlariga egadir.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.



Ruxshona OLTIYEVA,
IIV Buxoro akademik
litseyining 1-bosqich
o'quvchisi.

O'ZBEKISTONIM
MENING

*Jannat, desam, jannatdan
Qolishmas jamoling bor.
Dunyolarni lol qilgan
Bo'y-basting, kamoling bor.*

*Deydilar shifo bo'lar,
Bag'ringda ungan giyoh.
Men uchun ko'zlarimga
Tuproq'ing ham to'tiyo.*

*Dovrug'ing doston bo'lib,
Yetti iqlimga ketgan.
Saxiy mehmondo'stliging
Olamni maftun etgan.*

*Qishda ham bog'larida
Bahor kezgan diyorsan.
Istiqloling tufayli
Mangu iqbolga yorsan.*

*Tog'laring viqoridan
Qadring balandroq erur.
Yil bo'yi ko'kdan quyosh
Sen uchun sochadi nur.*

*Bolam desang, «jon» deyin,
Jon ichra jonim mening.
Baxtim sening baxtingda,
O'zbekistonim mening.*



Qoraqalpog'iston Respublikasi. O'zbekiston Respublikasi IIVning Qoraqalpog' akademik litseyi 2-bosqich o'quvchisi Kurmanbek Muratov 2023-yilda akademik litseyning 1-bosqichiga qabul qilindi. U akademik litseyga qabul qilingan kundan boshlab o'qishga qiziqishi, odob-axloqi, talabchanligi bilan o'z tengdoshlariga namuna bo'lib va litseyda o'tkazib kelinayotgan turli tadbirlarga, ko'rik tanlovlarga qatnashib kelmoqda.

K.Muratov maktabda olgan bilimlarini akademik litseyda mustahkamlab, tajribali pedagoglar tomonidan dars mashg'ulotlarini puxta egallab, ingliz tilidan C1 darajadagi milliy sertifikat olishga erishgan bo'lsa, 2024-yil akademik litsey, professional ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim maktabi 11-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan III bosqich fan olimpiadasida rus tili va adabiyoti fanidan faxrli 1-o'rinni egalladi hamda fan olimpiadasining O'zbekiston Respublikasi bo'yicha IV bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

K.Muratovning kelgusida o'z kasbining mohir ustasi bo'lib yetishishiga ishonchimiz komil.

Samarqand viloyati.

Bizning baxtimiz shundaki, buyuk bobolarning avlodimiz. Eng baxtli va eng omadli insonlar qatoridamiz. Shukurki, yurtimiz tinch, to'rt muchamiz sog', hech kimdan kam bo'lmasdan ulg'ayaymiz. Tongni betahluka qarshi olaymiz. Kunni quvonch bilan o'tkazyapmiz, tunda osudalik, halovat bilan dam olaymiz. Dunyo ahli tahlukalar girdobida turgan ayni pallada mam-lakatimiz hayotida hukm surayotgan tinchlik, farovonlikni asrash, siz-u biz, yurtimiz o'g'lonlarining bosh maqsadi bo'lmog'i darkor.

Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan biz yoshlarga ko'plab im-koniyatlar eshigi ochib berilgan.



Men yaqinda fan olimpiadasida viloyat bosqichida ingliz tilidan II o'rinni egalladim. O'qib-o'rganib, bilimlarimni boyitib, respublika bosqichida ham munosib ishtirok etib, ustozlarim ishonchini oqlayman.

Mansurjon ASATULLAYEV,
1-bosqich o'quvchisi.

VAQTNING QADRI

Qadim zamonda bir olim quyosh soatini ixtiro qilibdi. Shaharning o'rtasidagi maydonga uzun qoziq qoqib, odamlarga undan foydalanishni o'rgatibdi. Odamlar soatdan foydalanishni o'rganganlaridan keyin hayotlari tartibga tushib, ishlari va topish-tutishlarida baraka paydo bo'libdi.

Oradan yillar o'tib, olim dunyodan o'tibdi. Shahar aholisi quyosh soatini olimdan qolgan yodgorlik sifatida saqlab qolish maqsadida atrofni o'rab, ustiga chiroyli gumbaz qurishibdi. Lekin ishni tugatib qarashsa, soat endi vaqtini ko'rsatmay qo'yibdi. Qilgan ishlaridan afsuslanishibdi, ammo inshootni buzishni istashmabdi.

Oradan kunlar o'tibdi, odamlar endi bu yerga kam keladigan bo'lishibdi. Chunki buning foydasi yo'q edi. Ular asta-sekin soatni unuta boshlashibdi. Kunlaridan va ishlaridan baraka ketibdi, sababi ular vaqtning qadrini esdan chiqarishibdi.

Ey farzand, bilginki, har bir narsaning qadr-qimmatini uning keltirgan foydasi bilan belgilanadi.

«Tarbiya kitobi»dan


www.postda.uz

t.me/postdarasmiy

www.facebook.com/postdauz

www.instagram.com/postda_uz

MUNAJJIMLAR BASHORATI

(27-yanvardan 2-fevralgacha)



Qo'y. Hafta omadli kechadi. Siz kerak vaqtda kerakli joyda bo'lasiz, foydali tanishuvlar esa kelgusi hayotingizda asqatishi tayin. O'z fikringizni bildirishdan yoki biron harakat qilishdan cho'chimang. Har bir ishga o'zingizga kuchli ishonch bilan kirishing. Dam olish kunlarini yaqinlar davrasida o'tkazing.



Buzoq. Bu hafta sizga xush kayfiyat va ruhiy ko'tarinkilik hamrohlik qiladi. Ish joyingizda yangi yutuq va muvaffaqiyatlarga erishasiz. Asosiysi, o'zingizga bo'lgan ishonchni yo'qotmang, o'z nuqtayi nazariningizni himoya qilishdan cho'chimang. Dam olish kunlari hushyor va kuzatuvchan bo'lish talab etiladi.



Egizaklar. Dushanba va seshanba kunlari qiyinchiliklarga shay turing. Ish joyida muammolar kuzatilishi mumkin. Hafta o'rtalarida istiqbolli tanishuv va biron tadbirga taklif ko'rinishida yoqimli sovg'a kutmoqda. Dam olish kunlari qisqa muddatga bo'lsa ham tabiat qo'yniga sayrga chiqing.



Qisqichbaqa. Ushbu hafta sizdan katta mas'uliyat talab etiladi. Ammo bir necha ishni birvarakayiga bajarishga urinmang. Barchasini reja bilan, avvalo, eng muhimlaridan boshlash maqsadga muvofiq. Hafta so'ngida sizni muvaffaqiyatsizliklar ta'qib etishi mumkin, bunga yo'l qo'ymaslikka harakat qiling.



Arslon. Haftaning ilk kunlari deyarli har jabhada sizga omad kulib boqadi. Bu vaqt ichida yaxshigina daromadga ega bo'lishingiz, yaqin do'stingiz kutilmagan amali bilan sizni quvon tirishi mumkin.



Parizod. Bu hafta sizdan alohida kuzatuvchanlik talab etiladi. Begonalar ishingizga aralashishiga yo'l qo'ymang. Faqat shundagina rejadagi barcha ishlar ko'ngildagidek amalga oshadi. Bu davrda oilaviy masalalarni hal etish uchun ham imkoniyat tug'iladi.



Tarozi. Ish joyingizda muvaffaqiyatlar va oilada yoqimli tashvishlar kutmoqda. Payshanba yangi imkoniyatlar va muvaffaqiyatlar tuhfa etadi. Haftaning ikkinchi yarmida salomatligingizga jiddiy e'tibor qarating. Yakshanba kuni hech qanday ishni rejalashtirmay, maroqli dam oling.



Chayon. Kelayotgan hafta omadsizlik bilan boshlanadi. Biroq aslo tushkunlikka tushmang va asabiylashmang, chunki hafta o'rtalarida vaziyat barqarorlashib, ko'nglingiz ancha taskin topadi.



O'qotar. Hafta o'rtalarida uzoq kutilgan qarzingizni qaytarishadi yoki ko'p maoshli ishga taklif olasiz. Juma kunidan keyin ish joyida tushunmovchiliklar, moliyaviy qiyinchiliklar va oilada muammolar kuzatilishi mumkin. Bunga siz tomondan mas'uliyatning sustlashishi va intizomga amal qilmaslik sabab bo'ladi.



Tog' echkisi. Bu davr, umuman olganda, omadli kechadi. Ish odamlarini qiziqarli taklif, yollanma ishchilarni yaxshi mukofotli yangi loyiha kutmoqda, ijodiy shaxslar va erkin faoliyat yurituvchilar esa doimiy ishga ega bo'lishadi. Dam olish kunlari sizni yoqimli uchrashuv kutmoqda.



Qovg'a. Hafta boshida kutilgan natijalar o'zini oqlamaydi, lekin chorshanbadan keyin ham shaxsiy hayotda, ham ishda ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi. Buning uchun fidoyilik va faollikni namoyon etish, mas'uliyatni zimmaga olishdan cho'chimaslik lozim. Kelayotgan haftada oilaviy masalalarni hal etish uchun yaxshi imkoniyat tug'iladi.



Baliq. Sizni ish va tashvishlarga boy hafta kutmoqda. Hafta o'rtasida kuzatilgan pul tushumi ko'pgina muammolarni hal etishga xizmat qiladi. Oila a'zolari bilan biroz tortishib qolishingiz mumkin. Kuch-quvvatingizni foydali ishga yo'naltirishni uddalay olmasangiz, bundan aslo achchiqlanmang, yaxshisi sport bilan shug'ullaning.



Размышление на тему

КАК СОХРАНИТЬ БАЛАНС МЕЖДУ РАБОТОЙ И ЛИЧНОЙ ЖИЗНЬЮ?

Работа в органах внутренних дел требует не только профессионализма, но и полной самоотдачи. Постоянная готовность к вызовам, высокий уровень ответственности, порой непредсказуемый график – все это накладывает отпечаток на жизнь сотрудников. Однако даже в таких условиях важно находить баланс между служебными обязанностями и личной жизнью. Ведь гармония в этой области – залог психологической устойчивости, а значит, и эффективности на службе.



пределами службы, чтобы не нагружать себя и своих близких.

Здоровье – основа баланса

Регулярные занятия спортом, здоровое питание и полноценный сон – это база, которая помогает справляться со стрессом. Не стоит пренебрегать и профессиональной помощью психологов. Такие консультации позволяют взглянуть на проблемы под другим углом и найти пути их решения.

Поддержка семьи и коллег

Семья – главный союзник в борьбе с профессиональным выгоранием. Поддержка близких людей помогает справляться с эмоциональной нагрузкой. Но не стоит забывать и о коллегах. Разговоры с теми, кто понимает специфику работы, могут стать своеобразной терапией.

Увлечения и отдых

Личное хобби – это не просто способ отвлечься, но и возможность для самовыражения. Музыка, спорт, творчество, путешествия – все это помогает восполнять внутренний ресурс. Важно находить время для того, что приносит радость.

Баланс между работой и личной жизнью – это не статическое состояние, а постоянный процесс. Он требует осознанности, дисциплины и готовности менять привычки. Важно помнить, что успешный сотрудник – это не только профессионал, но и человек, который живет полной жизнью. Гармония в личной сфере дает силы для выполнения самых сложных задач. И если мы научимся находить время для себя и близких, то сможем служить обществу еще лучше.

Подготовила
Юлия КИМ.

Осознание приоритетов

Прежде всего, нужно четко понимать, что успешная карьера не может быть единственной ценностью. Личная жизнь – семья, друзья, увлечения – это те аспекты, которые наполняют нас энергией и помогают преодолевать профессиональные трудности. Выделение времени для близких людей и забота о себе – это не слабость, а необходимость.

Организация времени

Составление грамотного графика – один из ключей к успеху. Даже в условиях напряженного рабочего ритма стоит выделять время для отдыха. Это может быть

утренний кофе с семьей, прогулка перед сном или выходной, проведенный с детьми. Навык планирования поможет не только эффективнее выполнять служебные задачи, но и оставлять место для личных дел.

Границы между работой и домом

Одна из распространенных ошибок – перенос рабочих вопросов в домашнюю атмосферу. Конечно, в некоторых ситуациях это неизбежно, но важно не превращать это в правило. Дом должен оставаться местом, где можно расслабиться и восстановить силы. Постарайтесь ограничить обсуждение профессиональных проблем за



«Шукрки, меҳрни ўчирмаганман, Кўнгилни қуш қилиб учирмаганман...»

Саломатлик – бебаҳо неъмат. Орамизда ўзининг ширин сўзи, самимий муомаласи, зарур муолажаси билан одамлар соғлиғини асрашда доим жонкуяр бўлган шифокорлар кўп. ИИБ Тиббиёт бошқармаси «Ўзбекистон» санаторийси кардиология бўлини бошлиғи, шифокор-кардиолог Зумрат Каримова ҳам ана шундай фидойилардан биридир.

– Санаторийга биринчи марта 2003 йилнинг май ойида ишга кириш мақсадида келганим кечагидек ёдимда, – дейди лавҳамиз қаҳрамони. – Бу даргоҳнинг гўзал табиати, ундаги фойз мени ўзига бутунлай мафтун этган. Бир оила аъзоларидек меҳр-оқибатли, меҳнатсевар, бағрикенг, ўз хизмат вазифаларига сидқидилдан ёндашадиган ходимлар жамоасига қўшилиб, хизмат қилганимга ҳечам ачинмайман.

Мазкур муассасада кардиолог-шифокор сифатида хизмат бошлаган кезлари билан боғлиқ хотираларини бўлишаркан, Зумрат опа ҳозирда «Ўзбекистон» санаторийси бошлиғи, полковник Азиза Мўминова соҳанинг ўзига хослиги, шифокорлик масъулияти, аёл кишининг оиладаги ўрни борасида қимматли маслаҳатларини аямай устозлик қилганини

ҳам айтди.

Инсон ҳаётининг ҳар соҳаси муштдеккина юрак дукурларига ҳамоҳанг. Уни турли касалликлардан асрагангина ўз умрига ҳақиқий маънода посбондир. Подполковник Зумрат Каримова ҳам йиллар мобайнида юртимиз тинчлиги-осойишталиги посбонларининг жонига айнан шу йўналишдаги қони фойда бўлган тиббий муолажа ҳамда тавсиялари билан ора қиради.

– Одам организмнинг ҳар бир аъзоси унинг саломатлигида алоҳида ўрин тутди, – дейди тажрибали шифокор. – Агар улардан қайси биринингдир фаолияти бузилса, албатта, унга жиддий эътибор қаратиш керак. Халқимизда «касални яширсанг, иситмаси ошкор қилар» мақоли бежиз ярамган. Касаллик чуқурлашиб, юқори босқичларга ўтса, уни даволаш ҳам шунча мурак-



каблашади. Бизнинг йўналишда айнан юрак-қон томир касалликлари, уларнинг юзага келиш сабаблари, ривожланиш механизмлари, ўзига хос кечиши ҳамда диагностикаси, шунингдек, уларни аниқлаш, даволаш ва олдини олиш усуллари ҳам ниҳоятда муҳим. Бунда ҳар бир беморга алоҳида ёндашиш талаб этилади. Зарур бўлганида, бошқа йўналиш мутахассислари билан бамаслаҳат ишлашга тўғри келади.

Барча тиббий муассасаларда шифокорлар бир-бирларига исм-шарифи билан мурожаат қилишади. Зумрат Кучкаровна ҳам даволанувчилар ҳурмат билан мурожаат қилишади.

– Зумрат опа табиатан очиқкўнгил, самимий аёл бўлиши билан бир қаторда, қўли енгил шифокор, хизматда масъулиятли ходима, – дейди кардиология бўлини масининг катта кардиолог шифокори, капитан Мадина Қосимова. – Улар даволанувчиларга касалликнинг олдини олиш бўйича ҳам керакли тавсияларни беришдан ва соғлиқни назорат қилишдан чарчамайдилар.

Кўнгил эғнидаги либосидек оппоқ бу аёлнинг оила ошонида ҳам бахти тўқис. Турмуш ўртоғи билан аҳил-иноқликда ўғли Мирқудратиллани вояга етказишган. Унинг касби иқтисодчи. Беқиёс бахтиёрлик ҳукм сурган қўрғоннинг

яна бир қувончи набиралар Муҳаммадазиз ва Муҳаммадақбар бўлади.

Подполковник Зумрат Каримованинг ибратли, самарали меҳнат фаолиятига, мазмунли ҳаёт йўлига тўхталарканмиз, беихтиёр тилимизда

«Шукрки, меҳрни ўчирмаганман,
Кўнгилни қуш қилиб учирмаганман.
Умримни бировдан кўчирмаганман,
Ўзимга тегишли мавзуларим бор»
– дея битилган шоирона мисралар айланди.

Гулноза ТУРҒУНБОЕВА,
ўз мухбиримиз.

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

QOIDABUZAR JAZOGA TORTILDI



Kapitan Saydullo Yo'ldoshev 2015-yilda IIV Akademiyasini tamomlab, ilk xizmatini Chust tuman IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limida boshlagan. So'ng To'raqo'rg'on tumani IIB da ishladi. 2022-yilda viloyat IIB JXX YHXB Qidiruv surishtiruv bo'linmasiga ishga o'tdi. Hozirda Davlatobod tumani IIB JXX YHXB ma'muriy huquqbuzarlik materiallarini ko'rib chiqish bo'yicha katta inspektori sifatida faoliyat olib boradi.

Lavhamiz qahramoni 2024-yil 23-dekabr kuni «Shishaki» mahallasi hududida tungi xizmatga jalb etilgan vaqtda «Lacetti» rusumli

transport vositasini to'xtatib, tegishli hujjatlarni taqdim etilishini so'raganda haydovchining mast holatda ekani aniqlandi.

Inspektor qoidabuzarga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirib, avtomashina jarima maydoniga joylashtirildi. Shundan so'ng fuqaro kapitan S.Yo'ldoshevga o'ziga nisbatan to'plangan hujjatlarni sudga yubormasdan, ijobiy hal qilib berish evaziga 100 AQSH dollari miqdorida pora taklif qildi. Inspektor unga bu ishi qonunga xilof ekanini tushuntirdi. Lekin qoidabuzar tushunishni istamadi.

O'tkazilgan tezkor tadbir davomida fuqaro Davlatobod tumani IIB binosi oldida kapitan S. Yo'ldoshevga 2 mln 755 ming so'm miqdoridagi pullarni pora tariqasida berayotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlendi. Hozirda mazkur holat yuzasidan tergovga qadar tekshiruv harakatlari olib borilmoqda.

O'z muxbirimiz.
Namangan viloyati.

ORAMIZDAGI CEMPIONLAR

QADRDON MAKTABDA

Navoiy viloyati Ichki ishlar boshqarmasi va uning quyi tizimlari xodimlari orasida ko'plab muvaffaqiyatlarga erishayotgan iqtidorli yoshlar talaygina. Safdor Shohrux O'ktamov ham umidli yosh xodimlardan biri. U armrestling bo'yicha O'zbekiston va jahon chempionatlarida g'oliblikni qo'lga kiritgan.



Yaqinda chempion Navoiy shahridagi o'zi tahsil olgan 10-sonli umumta'lim maktabida bo'lib, unga ta'lim-tarbiya bergan ustozlari bilan uchrashdi.

– Shohrux bolaligidan tirishqoq, kamgap edi. Uni bugungi kunda erishayotgan yutuqlari bilan biz juda faxrlanamiz. O'qituvchilarining, ota-onasining ishonchini oqlagani, xalqimiz osoyishtaligini ta'minlashga hissa qo'shayotgani bizni yanayam quvontirdi, – deydi chempionning ustози Gulchehra Xo'jamurodova.

Shohrux O'ktamov uchrashuv davomida o'quvchilarga ichki ishlar organlaridagi faoliyati, sportda erishgan yutuqlari haqida hikoya qildi. Armrestlingga qiziquvchilarga yo'l-yo'riq va tavsiyalar berdi, ularga murabbiylik qilishga tayyor ekanligini bildirdi. O'quvchilar uning medallari va sovrinlarini havas bilan ko'zdan kechirishdi. Bu kabi uchrashuvlar yoshlarga motivatsiya berib, ularning sportga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishi shubhasiz.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



SALOMATLIK SABOQLARI

ME'YORDAGI UYQU

tan sihatligi uchun juda zarur

Inson salomatligi uchun sog'lom uyquning ahamiyati juda katta. Chunki to'yib uxlamaydigan odam organizmida ba'zi salbiy o'zgarishlar kuzatilib, turli kasalliklar yuzaga keladi. Shuningdek, kam uxlash yurakka salbiy ta'sir ko'rsatib, odam organizmida turli shish va yallig'lanishlar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Insonning me'yoriy 7–8 soatdan kam uxlashi ba'zan arteriyalarning zichlashishiga, qon bosimining oshishiga, insult va yurak falajiga sabab bo'ladi.



*Uyqusiz o'tkazma tun ila kunni,
Dam olmoq uchun sen uxla gohi-goh.
Uzoq uxlamasang tun ila kunlar,
Hazm va asabing buzilar nogoh.*

(«Tabobat ummonidan tomchilar» kitobidan.)

Kalsiy va magniy kabi mikroelementlar sokinlashtiruvchi xususiyatga ega bo'lib, bezovtalik, ruhiy hayajon, ichki siqilish hissini bartaraf etadi va shu orqali uyquni me'yorlashtiradi. Inson belgilangan vaqtda to'yib uxlashi va hordiq olishi uchun D, E, C va B guruhi vitaminlari ham zarurdir.

Inson organizmi qand moddasini me'yorda saqlab turish uchun ko'p insulin ishlab chiqarishi kerak. Kam

uxlash esa qondagi qand miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatib, bu ham yurak kasalliklariga sabab bo'ladi.

Ba'zilarni uyqusizlik kasali bezovta qiladi. Uyqu buzilishining asosiy sababi – bedorlik. Ko'p holatda qattiq charchash, miyada qon aylanishining buzilishi bedorlikka sabab bo'lishi mumkin. Shovqin, yorug'lik, surunkali uyquga to'ymaslik, allergiya ham bedorlikka olib keladi.

Bir so'z bilan aytganda, tan sihatligi uchun me'yordagi uyqu juda zarur. Shu orqali inson tanasining turli kasalliklarga qarshi kurashish kuchi ortadi. To'yib va miriqib uxlash uchun qahvani kam miqdorda iste'mol qilish, shuningdek, kechqurun yotishdan oldin turli gadjetlardan foydalanmaslik, ko'p televizor ko'rmaslik tavsiya etiladi. Uxlashdan 1–2 soat oldin kefir, sharbat, tvorog, smetana va boshqa yengil hazm bo'ladigan meva-sabzavotlar yoki moychechakli choy iste'mol qilish foydalidir.

Mutaxassislarning aytishicha, soat 23.00 dan 05.00 gacha bo'lgan vaqt oralig'ida organizm salomatligi uchun muhim gormon hisoblangan melatonin ishlab chiqariladi. Bu paytda bedor bo'lish esa gormonlar sintezi buzilishiga, shuningdek, kortizol (stress gormoni) ortishiga olib keladi. Organizmda melatonin yetishmasligi bir qator kasalliklar kelib chiqishiga, shu jumladan, neyrogen, endokrin, vegetativ buzilishlarga sabab bo'ladi. Shu bois, bu vaqt oralig'ida uxlashga harakat qilish muhim ahamiyatga ega.

ZAYTUN YOG'I

ORGANIZMNI YOSHARTIRADI

Ushbu turdagi yog' tarkibida A, D, E, K vitaminlari mavjud bo'lib, aynan shu to'plam uning shifobaxsh xususiyatlarini ta'minlaydi. Zaytun yog'i yurak-qon tomir tizimi va oshqozon-ichak trakti faoliyatini yaxshilaydi, yallig'lanishlar va diabet rivojlanishi xavfining oldini oladi, artrit, insult va oshqozon yarasini davolashda yordam beradi.



Ertalab och qoringa bir osh qoshiq zaytun yog'i iste'mol qilish qonda xolesterol miqdorini kamaytirishga, qon bosimini me'yorlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu mah-

sulot turli vitaminlarga boy bo'lgani bois immunitetni mustahkamlaydi, tish va milklar holatini yaxshilaydi.

Zaytun yog'i ovqat hazmini yengillashtiradi, aqliy faoliyatni va xotirani yax-



shilaydi, suyak to'qimasini mustahkamlaydi, jarohat va yaralarning tez bitishiga yordam beradi, jigar faoliyatini yaxshilaydi, safro yo'llarini faollashtiradi.

Organizm tomonidan yaxshi o'zlashtiriladigan zaytun yog'i oshqozonga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uni o'rab oladi, ishtahani pasaytirishga va moddalar almashinuvini tezlashtirishga yordam beradi.

Zaytun yog'i tarkibida mavjud bo'lgan oleyk kislotasi (omega-9) organizmga to'qlik hissini beradi va ozishga yordam beradi. Shu bois parhezshunoslar uni taomnomaga kiritishni

tavsiya etishadi. Tarkibidagi E vitamini va antioksidantlar – K va A vitaminlari o'zlashtirilishiga yordam beradi. Ushbu zanjir natijasida organizm yosharadi, teri, soch va tirnoqlar holati yaxshilanadi.

Ma'lumki, insonlarning kayfiyati tez-tez o'zgarib turadi. Ushbu ko'rinishdagi yog' esa kayfiyatni ko'tarish xususiyatiga ega. Chunki zaytun yog'i miyaning ushbu jarayonga javob beradigan kimyoviy moddasi – serotonin darajasini oshiradi.

Gulchehra AZIMOVA
tayyorladi.

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotib –

Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Sarvar SOBIROV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-yozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^a-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olgan.

Buyurtma №184.

Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 46200 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz